

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA FAKULTETI

«O'ZBEK FILOLOGIYASI» KAFEDRASI

**«ZAMONAVIY SHE`RIYAT TARAQQIYOTI TAMOYILLARI»
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajardi: «O'zbek filologiyasi» ta'lim
yo'nalishi bitiruvchisi 4-kurs talabasi
Jumaboeva Shahnoza _____

ILMIY RAHBAR:
f.f.n., dots. Salayev F. _____

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o'tdi.
____-sonli bayonnomasi «____» may 2014 yil

Nukus- 2014

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI HIMOYAGA TAVSIYA
QILINADI:**

Fakultet dekani:

dots. Abdullaev H.

Kafedra mudiri:

dots. Bobojonov F.

Ilmiy rahbar

dots. Salayev F.

DAK Q A R O R I:

JUMABOEVA SHAHNOZning «Zamonaviy she`riyat taraqqiyoti
tamoyillari» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga Davlat attestatsiyasi
komissiyasi qarori bilan « »() bahosi qo'yilsin.

DAK kotibi:

Qlichev N.

«____»_____ 2014 yil

Mavzu: ZAMONAVIY SHE`RIYAT TARAQQIYOTI
TAMOYILLARI

REJA:

Kirish:

- a) mavzuning dolzarbligi;
- b) malakaviy-bitiruv ishining maqsadi va vazifalari;
- v) ishning tuzilishi.

Asosiy qism:

1-bob. Zamonaviy she`riyatning mavzu ko`lami

- a) milliy g`oya va mafkura madhi;
- b) Vatan va ona xalq mavzusi istifodasi;
- v) she`rlarning axloqiy-estetik ahamiyati.

2-bob. Hozirgi o`zbek she`riyatining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari

- a) she`rlarda diniy-tarixiy qadriyatlar ulug`lanishi;
- b) sevgi mavzusining yangicha talqinlari;
- v) yangi izlanishlar va tajribalar.

Umumiy xulosalar:

- a) ishda ilgari surilgan fikrlarni umumlashtirish;
- b) muayyan mulohazalar, tavsiya va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar

KIRISH

Istiqlol tufayli Respublikamiz hayotining barcha sohasida – ijtimoiy, iqtisodiy, shuningdek, siyosiy faoliyatida katta o`zgarishlar sodir bo`ldi. Tarixiy va milliy qadriyatlarga bo`lgan munosabat tubdan o`zgardi. Madaniyat, Ma`naviyat mafkura yo`nalishlarida ham o`zgarishlar ro`y berdi va bu jarayon bugungi kunda ham davom etmoqda. Bu hol Respublikamiz madaniy va Ma`naviy taraqqiyotida muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Ma`lumki, hayotda, jamiyatning turli jabhalarida ro`y bergan o`zgarish va evrilishlar adabiyot va sanatta ham o`z ifodasini topadi. Bu narsa eng hozirjavob so`z sanati sohasi sanalmish she`riyatda yanada yaqqolroq ko`zga tashlanadi. Shuning uchun ham she`riyat nisbatan tez yangilanadigan, shaklan va mazmunan zamon bilan hamohang kadam tashlaydigan tashlaydigan soha sanaladi. Shu sabab ham bugungi she`riyat kechagi she`riyatdan tubdan farq qiladi. Kechagi she`riyat ko`proq ijtimoiylashgan, voqealar zamirida ko`proq hayot ziddiyatlarini ko`rsatgan bo`lsa, bugungi she`riyat ko`proq o`z nigohini insonning botiniy dunyosiga qaratdi, uning ruhiy olamini, tuyg`ularini ochib berish asnosida insonni o`zi bilan tanishtirdi. Bunda u o`ziga xos yaratilgan poetik obrazlardan, ramziy ko`chimlardan foydalandi, ularga alohida etibor berdi. Buning asosiy sababi inson ruhining tabiatini teran va to`laroq ochish, shuningdek, tasirliroq ifodalash bilan belgilandi. Chunki bunga bugunda har qachongidan ham ko`proq ehtiyoj sezilmoqda.

Bugungi adabiy jarayonda, xususan, she`riyatda kechayotgan janr va shakliy izlanishlar shunchaki ijodiy tajriba – poetik eksperiment namunalari bo`lib qolayotgani yo`q. Muttasil kechayotgan janr va shakliy izlanishlar shoirlarning yurak amriga, Ma`naviy-intellektual ehtiyojiga aylangani sababli ham yaxshi natijalar bermoqda. Voqelikni tushunish, inson va jamiyat psixologiyasini tushuntirishda hayotiy mazmun bilan to`liqib bormoqda. Istiqlol davri she`riyatimiz g`oyaviy-estetik mundarijasini belgilamoqda. Real hayotiy

mazmun, zamonga hamnafaslik, qaynoq davr ruhi istiqlol she`riyatining etakchi xususiyatlaridan biriga aylanib bormoqda.

Poetik janr va shakllardagi izlanishlar qanchalik ko`p bo`lsa, badiy-estetik manoni ifodalash usullari, yo`llari shunchalik kengligini ko`rsatadi shoirlarimiz salohiyatining daraja-miqyoslarini tasdiqlaydi. Zero, janr va shakliy izlanishlarbadiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy mzmunni berish barobarida, salohiyatning imkoniyatlarini ham ko`rsatadi. Bizda, odatda badiiy asarni o`qish, o`zlashtirish vabaholashda ikki xil nuqtai nazar etakchilik qiladi.

Birinchisi, ratsional qarash bo`lib, u yoritilgan mavzuning nechog`lik dolzarbligini, davr-zamonga hamnafas, hozirjavobligini kitobxonlarning hayotiy tajribasi va qiziqishlariga, jamiyat manfaatlariga ko`ra baholaydi. Bu – badiiy mazmunni ratsional idrok etish mahsuloti, albatta.

Ikkinchisi, hissiy-emotsional yondashuv bo`lib, u kitobxonning hayotdagi va sanadagi go`zallik tuyg`ulari talqinidan, idrokidan kelib chiqadi. Bunda mavzuning muhimligi emas, aksincha, asarning estetik tasir quvvati, badiiyati qadri etakchi o`ringa qo`yiladi.

Insonning tabiat va jamiyat bilan bog`liq bo`lgan ruhoniyl hayotini yangicha badiiy tadqiq etishda realizmning ijodiy imkoniyatlari tobora takomillashib, kengayib bormoqda. Xususan, borliq vayo`qlik mehvarida turgan inson fenomeni-psixologiyasini favqulodda hodisa sifatida tadqiq etish mazkur yo`nalishning ustuvor xususiyatlaridan biridir. Psixologik realizm deb atash mumkin bo`lgan ushbu badiiy yo`nalishshaxsning moddiy va Ma`naviy qadriyatlar bilan (din, madaniyat, tarix, tabiat, jamiyat) bog`liq robitalarini tahlil etmoqda.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Odamlarda o`zligini anglash, milliy g`urur, oriyat, o`tmishdan faxrlanish, porloq kelajagimizni o`z qo`limizga olganimizdan g`ururlanish kabi tuyg`ular kamol topyapti, ularning bugungi va ertangi kuniga ishonchi ortib boryapti» deb

aytgan soʻzlari hozirgi sheʻriyatimiz va uning yangi tamoyillariga ham tegishlidir.

Maʼlumki, shoirning falsafiy tafakkuri, hayotiy mushohadasi lirik qahramon, poetik obrazlar, ramzlar vositasida berilsa, davr ruhini, xalqning orzu-istaklarini, inson ichki kechinmalarining tasirchan va yuqumli boʻlishiga imkon yaratiladi. Bugungi sheʻriyatda shunday qilinayapti. Shuningdek, bugungi sheʻriyatda azaliy anʼanalarga boʻysunmaydigan yangi yoʻnalish, yangicha usul yuzaga kelmoqda. Bu modern sheʻriyatdir.

Biz ushbu bitiruv-malakaviy ishimizda mustaqillik davri sheʻriyati uchun asosiy tamoyillar sifatida koʻzga tashlanayotgan sheʻriyat hodisalariga diqqat qaratmoqchimiz. Zero, yuqorida taʼkidlaganimizdek, zamonaviy sheʻriyat ijtimoiy hayotda roʻy berayotgan barcha Maʼnaviy-ruhiy oʻzgarish va evrilishlarni oʻzida ifoda etuvchi ijtimoiy ong koʻrinishidir. Shunday ekan, ushbu sheʻriyatni oʻrganish, yutuqlarini targʻib va tashviq qilish kishilarga zamon ruhini, milliy gʻoya va mafkura asoslarini egallashda, ularning Maʼnaviy boy, erkin va mustaqil fikr egalari boʻlib etishuvida yordam beradi.

Bitiruv-malakaviy ishimiz kirish, xulosa va adabiyotlar roʻyxatidan tashqari ikkita mustaqil boblardan tashkil topgan boʻlib, ularning birinchisida zamonaviy sheʻriyatda milliy gʻoya va milliy mafkura masalalarining yoritilishi muammosi xaqida mulohazalarimizni yoritdik. Ikkinchi bobda esa mustaqillik davri lirikasining mavzu doirasi, gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari xususidagi fikrlarimiz bilan oʻrtoqlashdik. Ishimizga asosiy manba sifatida A.Oripov, E.Vohidov, E.Oxunova va H.Xudoyberdieva va boshqa ijodkorlarning lirik asarlaridan bazi namunalarni tanladik.

Sheriy asarlar tahlilida taniqli adabiyotshunos olimlar M.Qoʻshjonov, O.Sharofiddinov, U.Normatov, I.Gʻafurov, I.Haqqulov kabilarning sheʻriyat va umuman badiiy ijod haqidagi fikrlariga tayanib ish koʻrdik.

Oʻylaymizki, ishimiz umumtalim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida adabiyot oʻqitish va maktabdan tashqarpi oʻqishni tashkil

etish va boshqarishda adabiyot o`qituvchilari uchun zaruriy qo`llanma bo`lib xizmat qiladi.

1-bob. ZAMONAVIY SHERIYATNING MAVZU KO`LAMI

Vatan ravnaqi, xalq farovonligida, yurt tinchligi, fikr-ongning ezgu maqsad sari yo`nalishida, komil insonning shakllanishida milliy g`oya va mafkuraning roli va o`rni g`oyat kattadir. Uni odamlar ongi va qalbiga singdirishda bir qancha omillar qatorida adabiyot katta vazifa bajaradi. Ma`lumki, milliy g`oya va milliy mafkura keng tushuncha. U tarkibiga Ma`naviy, siyosiy, iqtisodiy, diniy masalalarni qamrab oladi. Milliy g`oya inson va jamiyat hayotiga katta mano va mazmun kasb etadigan falsafiy fikr va dunyoqarash olib kiradi. Bu fikrlar insoniylik bilan yo`g`rilgani uchun uning ezgu maqsadlarni amalga oshirish tamoyillarini belgilaydi va qay tarzda amalga oshirish g`oyasini ishlab chiqadi. Biroq plyurealizm tamoyiliga ega bo`lgan mafkuragina istiqbolli va hayotbaxsh bo`la oladi. Chunki bunday mafkura erkin fikrga to`squinlik qilmaydi.

«Yakkahokimlikka intilgan, mutlaq haqiqatni davl qiladigan mafkuraning istiqboli yo`q. Chunki u yakkahokimlik o`rnatish barobarida xilma-xilligidan uzilib qoladi. Sobiq ittifoq davrida etmish yildan ziyod yakkahokimronlik qilgan kommunistik mafkuraning tanazzuli buning yaqqol dalilidir.»¹

Tabiiyki, adabiyot plyurealizm asosiga qurilgan. Lekin ilgarilari uning ushbu tamoyili g`oyat cheklangan edi. Shunday xarakterga ega bo`lgan asarlar qoralanardi. Istiqlol bunday cheklanishga barham berdi. Adabiyot o`z o`zaniga tushdi.

«Milliy g`oya hech qachon Vatandan tashqarida ildiz otmaydi va rivojlanmaydi. Vatanning ravnaqiga xizmat qilmaydigan g`oya hech qachon milliy bo`la olmaydi. U Vatan ravnaqini belgilab beradigan tamoyillarni

¹ Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, O`zbekiston, 2000, 19-bet.

o`zida aks ettirsagina kuch-qudrat manbaiga aylanadi.»¹ Bugungi adabiyot xuddi shunday. Uning zamirida xalq Ma`naviyatini o`stirishga, farovonligini taminlashga, Vatan ravnaqini belgilashga xizmat qiladigan g`oyalar yotadi. Bugungi lirika shu xususiyati bilan o`ziga xoslik kasb etadi. So`zsiz u hayotni, siyosatni idrok etishda, unga munosabat bildirishda ham mazmun, ham shakl jihatidan rang-barangdir.

Ma`lumki, she`r sarlavhadan boshlanadi. Istedodli shoir sarlavha orqali ham o`quvchi qalbiniga yo`l topa oladi. Sarlavha esa, she`r mazmunidan kelib chiqadi. Nomlanishda yarim mazmun ifoda topsa, mavzu bilan uyg`unlikda o`z mantiqiy asosi va mohiyatiga ega bo`ladi. Bu hol ayniqsa ustoz shoirlar ijodida yorqin ifoda topadi.

Hayot haqiqatidan Ma`lumki, har kim o`z qo`lidan kelgan yumish bilan mashg`ul bo`lsagina, o`ziga ham, jamiyatga ham foyda keltiradi. Bugungi bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan kun, davr talabi va shiori shudir. Yani har kim o`z o`rnida vijdonan mehnat qilsin, o`z sohasini rivojldantirishga hissa qo`shsin. Bu shior zamirida ham milliy g`oya yotadi. Chunki unga rioya qilinsa, Vatan taraqqiyotiga erishiladi.

Erkin Vohidovning «Bizga so`z tegdi kecha» she`rida zamonamizning ayni shu masalasiga munosabat seziladi. Bir kishi minbarlarda nutq irod etib, olqishlarga ko`milganlarga havas qiladi. U ham bo`shagan minbarga ko`tarilib, so`z aytadi, lekin uning rost so`zini qabul qilishmaydi. Natijada o`zgalarga maqtov kimxobi yopilsa, unga «sarpoyi sazo - qarg`ishli bo`z» yopiladi. Shoir ushbu voqeadan shunday xulosa chiqaradi:

Yaxshidir har kimsa gar
Har erda qilsa o`z ishin.
Misli devorzan ishiga

^{1 1} Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent, O`zbekiston, 2000, 52--bet.

Kavshdo`z tegdi kecha.

Kishiga xayot va insoniylikning mohiyatini anglatish qalbiga ezgulik urug'ini ekish demakdir. Har kimning qalbida ezgulik urug'i ko`karar ekan, har bir amali xalqi va Vatani ravnaqiga yo`naltirilgan bo`ladi. Ruhiyati shunday fazilatlar bilan yo`g`rilgan shaxslar hayotda yashab o`tishgan va hozirda ham mavjud, biz bilan bir havodan nafas olmoqdalar. Bu xil insonlarni xotirlash va qadrlash, ularning fidoyiligini xalqqa etkazish zamondoshlarimiz Ma`naviy-axloqiy qa`rashlarinishakllantirishda juda katta vazifa bajaradi.

Abdulla Oripovning «Temur» nomli shu xarakterdagi asardir. Sherning har satrida naqshlangan Temur jasorati, cho`ng vatanparvarligi, erksevarligi kitobxon qalbida o`z ajdodlaridan afxrlanish tuyg`usini uyg`otadi. Ma`lumki, bu tuyg`u maqsadni belgilashda va unga intilishda juda katta ruhoniyl vazifa bajaradi. Shoir «...yolg`iz zanjir Saroyning o`chini o`rdadan ola bilgan zot»ga, yani millatning jo`mard farzandiga kechagi tuzumning munosabatini ko`rsatish bilan sho`rolar tuzumining adolatsizligini ochib beradi. Ko`p yillardan beri Temurga nisbatan «fotih» so`zining salbiy ma`nosi, yani zabt etuvchi ma`nosi qo`llanib kelinganligi hech kimga sir emas. Shoir ushbu masalaga aniqlik kiritadi:

Jahonni mo`g`ullar iskanjasidan
Qutqarib qololgan borlosiy botir –
Qocholmay taqdirning taqozosidan,
Fotih nom olmish o`zi ham oxir.

Buyuklar xalqning ko`zini ochadi, daholar ularni birlashtiradi. So`zsiz Amir Temur ana shunday buyuk va daholardan biridir. Shoir undagi ushbu xususiyatlarni katta mahorat bilan ochadi. «Hukmi oliy bila etmish namoyon

«Kuch bu – adolatda» degan soʻzlarni», Sohibqiron tilidan aytilgan, bugungi kunning ham purhikmat shiorini misralar zamiriga singdirib yuborgan. Umuman, sheʼrning har misrasi Sohibqiron shaxsiyatining u yoki bu qirrasini oʻquvchi koʻz oʻngida badiiy ifodalab, juda katta ijtimoiy mazmun tashishga boʻysundirilgan:

Qon toʻkmish jahongir goho begumon,
YOvlari tikmasdan qonli koʻzlarin.

Demak, dushman bosh koʻtarmasdan oldin uni daf qilish siyosati buyuk sarkarda tomonidan qoʻllanilgan va bu yaxshi samara berganligi tarix sahifalaridan Maʼlumdir. Bu bilan Temur xalqni falokatlardan saqlab qolgan. Bu xil siyosatni bugungi kunda xalqlar va mamlakatlar orasida nizo va adovat tugʻdiradigan ayrim terroristik guruh va birlashgan jinoyatchilarga qarshi qoʻllash mumkin. Chunki bunday guruh va tashkilotlar el osoyishtaligiga rahna solishadi. Sheʼr zamiriga yashiringan gʻoya shunisi bilan ahamiyatlidir.

Milliy gʻoya bilan yoʻgʻrilgan sheʼrlarning ahamiyati shundaki, u yurtga, Vatanga, xalqqa, ota-onaga nisbatan kishi qalbida katta mehr uygʻotadi. Xalqning qadimiy qadriyatlari – urf-odat, udumlari, tanti va joʻmardligi, mehnatsevarligi naqadar fusunkor ekanligi inkishof etiladi. Eng muhimi bunday sheʼrlar goʻzal insoniy tuygʻularni shakllantiradi va tarbiyalaydi. Ushbu manoda Oydin Hojjeva va Halima Xudoyberdieva sheʼrlari ajralib turadi.

Zaranglarda toʻrgʻ ayga
Aylangan chanqovuzim.
Koʻksida kiyik uxlar
Qishloqdagi hovuzim, -

deb yozadi Oydin Hojjeva o`zining «Tavallud taronasi» nomlangan turkum she`rlaridan birida. Sof milliylik bilan sug`orilgan tashbehlardan kishining ko`ngli yayraydi. Chanqovuz sof milliy cholg`u. Nihoyatda yoqimli kuy taratadi. Uning kuyi yigitlar qalbida shijoatkorlik, jo`mardlik kurtagini undirgan bo`lsa, qizlar qalbida sabr-toqat, mehr, sadoqat maysalarini o`stirgan. Shu sabab shoira uni kuyga nisbat berib zarang to`rg`ay deydi.

Ma`lumki, kiyik g`oyat pokiza, ziyrak, beozor, shu bilan birga hurkak hayvon sanaladi. Shunday fazilatlarga ega jonivor qishloq hovuzining ko`ksida uxlaydi. Bu erda hovuz, albatta, ko`chma manoda. U qishloq ayollarining ramzi. Demakqishloq ayollari kiyikday hurkak, yotlardan begonasiraydi, ziyrak va pokiza. Ayollar pokizaligi she`rda ikki marta ta`kidlanadi. Birinchisi, kiyikning pokizaligiga qiyos qilinsa, ikkinchisi hovuzga nisbat berilgani. Bilamizki, suv toza, poklovchi tabiat mahsuli. Hovuz toza tuilmasa, ifloslanadi, o`z jozibasi tavovatini yo`qotadi, xunuklashadi. Shoiraning ayollarni unga qiyos qilganida katta falsafiy umumlashma mavjud.

Sherning keyingi misralarida faqat o`zbeklarga xos milliy belgilar o`z ifodasini topgan.

Momolar chekkasida

Atir sochgan jambillar

Qizlarning elkasida

Kokil bo`lgan tolgullar.

«Tavallud taronasi» turkumiga kirgan she`rlarda qishloq odamlarining o`z mehnati samarasidan quvonchi, fasllarning mo`jizakor tarovati, tabiat yashnashidan odamlarning yashnashi, o`zining hayotdagi o`rni va ezgu amollaridan mamnuniyat tuyg`ulari, tavallud topib shu narsalarga erishgandan shukronalik hislari, ona diyorga mehr muhabbat ifodalandi:

Tug'ilgan kunim haqqi
Hur shamolga assalom!
Istiqlolga assalom!
Dilda cheksiz ehtirom,
Ota yurtim assalom!
Ona xalqim assalom!

Inson o`z-o`zidan bino bo`lmaganligi, barcha narsaga o`zicha erishmaganligini anglash, boshqacha aytsak, o`zini butun xalqning bir bo`lagi, farzandi ekanligini his qilish insoniylikka yo`naltiruvchi ruhoniyl omillardan biridir. Shunday ruhiyatdagi kishilar manmanlikka berilmaydi. Demak, manmanlik tufayli yuz beradigan g'ayriinsoniylik o`z-o`zidan barham topadi. Sher matniga singdirilgan bunday fikrlar milliy g'o'yani taminlaydi.

Millatning millatligini belgilovchi ideallarni anglatish ham muhim g'oya sanaladi. Va adabiyotning muhim ijtimoiy vazifalaridan biri hisoblanadi. O'tgan asrning «-)yillaridan etiboran adabiyotning ushbu xususiyati so`ndi. Istiqlol davriga kelibgina adabiyot buni o`zining muhim masalasiga aylantirdi. Bu masala millat va yurt ravnaqida katta ahamiyatga ega. Chunki o`tmishni, tarixiy shaxslarni anglash kelajakni qarshilashga, uning farovonlik sari odimlash yo`lini to`g'ri belgilashga imkon beradi.

Sharq qadimdan madaniyat beshigi, go`zal axloqlar markazi, adolat va haqiqat makoni ekanligi hozirda hammaga ayon. Lekin buning negizi nimada ekanligini hamma ham bilavermaydi. Buning sababi bizningcha, haqqa intilishdir. «Haq» so`zi ikki manoga ega ekanligini unutmasligimiz kerak. Birinchisi – Ollloh, ikkinchisi – haqiqat. O`zi yurgan yo`lning to`g'riligiga sobit ishonch va hamma ishlarda halollik, to`g'rilik. Bunday yo`lda yurganlar uzoq va yaqin o`tmishda qatag'on qilinganlar. Afsuski, uzoq yillar davomida ularning shaniga tosh otib, ruhlarini chirqiratdik. Bugungi kunda bularning

mohiyatini anglatish ham milliy g'oyaning muhim jihatlaridan biridir. Shoir Usmon Azimning «Yashasin jasorat» turkum she'rlari zahirida mana shu xil g'oyalar yashiringan:

Yuragidan o'tgan nurdan
Tirmashadi falak sari Sharq, -

deb yozadi u shunday misralar bilan boshlanadigan she'rida. Ma'lumki, kishining yo'li nurli bo'lsagina u yuksaklikka ko'tarilishi mumkin. Nurli yo'lga ko'tarilishi uchun inson har jihatdan pok bo'lishi kerak. Bu erda sharq geografik manoda emas, u erda yashaydigan dini, iymoni but musulmonlar nazarda tutilmoqda. Haqiqiy musulmon esa, doimo ezgulikka, haqiqatga intiladi. Sharq xalqlari esa hamisha shunday. Uning falak sari yuksalishi shundan. Ortiqcha mutaassiblik, aqidalarga yopishib olib, dunyoviy masalalarga befarq qarash, o'zga etiqodli kishilarni mensimaslik kabi illatlarga ham shoir o'z munosabatini bildirib o'tadi:

Muzlab qolgan badbaxt shuurdan
Qorong'uga to'rt tarfi g'arq.

Haqiqatan ham, badbaxtlik shuurni muzlatib qo'yadi. Oqibat kishi zulmatga g'arq bo'ladi. Muzlagan shuur Mansur Hallojni dor ostiga olib keldi...

Usmon Azimning «Qo'shiqqa ko'chmagan odam adammas», «Mayda rusumlardan tamom kechasan», «Mangu archazorning shundoq chetida» misralari bilan boshlanadigan she'rida ham milliy g'oya lirik qahramon ruhiyati o'rqali o'quvchiga tasirchan bir tarzda etkaziladi.

O'zbekiston Qahramoni xalq shoiri A.Oripovning «Olgan nafasing yangidir beshak» turkumida inson mohiyatiga yangicha yondashuv kitobxon

diqqatini o`ziga tortadi. Inson onadan yolg'iz o`zi tug'lsa-da, yolg'izlikning erka bandasi emas. U odamlar bilan birgalikda, hamnafaslikda kechuvchi tirikligi bilan yorug' dunyoga mansub, degan g'oya etakchilik qiladi. U o`z zimmasiga yuklatilgan, chekiga tushgan tiriklik masuliyatini nechog'lik manoli ado etishi ongi-etiqodini sharaflarga noil etadi, degan mazmun balqib turadi.

O`zbekiston xalq shoiri Halima Xudoyberdieva milliy g'oya va mafkurani o`zgacha his qiladi va ifodalaydi. Uning mohiyatini ayollar siymosi va xatti harakatida inkishof etadi. Shoira Muhabbat To`xtasheva bilan suhbatda bu haqda shunday deydi: «Hozir yurtimizda hamma jarayonlarda kengayishlar, shitobli o`zgarishlar ketyapti. Mana bugun ilg'or ayollar safida peshqadam tadbirkorlar turibdi. Bu ham jamiyatdagi o`zgarish, yangilanish jarayonlarining yorqin bir ko`rinishi deb o`ylayman. Tadbirkor ayollar ilg'or nuqtalar sari o`sishga harakat qilib bormoqdalar. Albatta, biz jamiyatning yaxshilanish tomonga tashlangan har qadamini qo`llaymiz.»¹

Shoira yozadi:

Bundan agar el uchun,
Kelar bo`lsa qilcha naf,
Qilday tilini topib,
Tillashaver mor bilan.

Lekin shoira masalaga keng nazar tashlaydi. Istiqlol tufayli yurtda har jihatdan tiklanish jarayoni boshlanganligini etirof etarkan, unda ayollar o`rni beqiyos ekanligini ta`kidlaydi. «Chunki ayolda yaratuvchanlik mavjud. Jamiyat minbariga chiqish – oila ostonasidan uzoqlashish degani emas. To`maris momomizni ehtimol qasos o`ti xundor etgandir. Nodirabegimni balki qora qismat siyosiy maydonga tortgandir. Bibixonimni balki xalqiga,

¹ «Yozuvchi» gazetasi. 1999 yil, 11-12-son.

yoriga bo`lgan mehri saltanat tomon chorlagandir. Har ne bo`lganda ham, ular hech bir vaziyatda iuqaddaslik tushunchasini va yana muborak oilani zinhor unutmaganlar. Biz ana shu muslimalik, hokisorlik tiynatida xalqqa bosh bo`lgan ayollarning avlodimiz.»²

Shoira bu fikrlarini she`rda aks ettiradi:

Ayol – olov, ayol – gul,
Sochlar – arsloniy yollar.
Ishqda yonmay bo`lsa qul
Hayf-ey, olov ayollar.

Avvalo she`rdagi xalqona ohang milliy jozibadorlikni yuzaga keltirgan, zamiridagi fikr milliy mafkurani taminlaydi. Bu erda ishq polifonik tushuncha. Yani hayotiy va majoziy ishq uyg'unligini tashkil etish bilan birga, yurtiga, xalqiga bo`lgan ishqni ham qamrab oladi.

Qutlibeka Rahimboevaning she`rlari o`ziga xos, o`zgani takrorlamasligi bilan ajralib turadi. U ozodlik, hurriyat so`zlarini yaxshi ko`radi. «Opa to`rtinchi kitobchaga ham shunchalik suyunadimi?» degan savolga Qutlibeka shunday javob beradi: «Bu mening Vatanim mustaqil bo`lgach chop etilgan birinchi kitobim. Balki shuning uchun haddan ziyod quvonib ketgandirman. YO bunda men «Vatan» degan so`zni O`zbekiston ma`nosida ayta olganim, «millat», «turkiy» kabi so`zlar, tushunchalar qo`shilgan so`zlarning «qiynalmay» nashr etilganidir, sevinchim.»¹

Tog`ning sabri tugasa vulqon bo`lib otilarmish. Ijodkor esa yurak zardobini misralarga to`kadi. Qutlibeka shunday qilgan. U mustaqillikdan avvalroq yaratgan «Raddiya» she`rida shunday yozgandi:

² Yuqoridagi manba.

¹ «Milliy tiklanish» gazetasi. 1995, 2 mart, 9-son.

Tarvaqaylab yotar dilimda
Ular ekkan xo`rlik yontog'i...

Nima uchun boshqa o`simlik emas, aynan yontoq? Chunki yontoqning ildizi juda ham uzun – o`zidan qirq barobar bo`ladi. Qutlibeka misralarida qalblarga ekilgan erksizlikning alamlari benihoya uzun va katta ekanligiga ishora bor. Shoira «Biz» she`rida ushbu alam va iztiroblarni muayyanlashtiradi:

Har bir so`zimning ildizi
Huv muhtaram zotning bo`g`zida.
Labimizga olamiz tizib,
Unib chiqqan lahza og`zidan.

Bu misralar mag`zini chaqqan odam sho`rolar davrining biqiq ijtimoiy-siyosiy va Ma`naviy muhitini darrov ko`z oldiga keltiradi.

Rayhonlarga chulg`anib kettgan
Onam hidi keladi sendan.
Bilamanki, hokisorginam,
Sen hech narsa kutmaysan mendan.

Ushbu satrlar istiqlol davri she`riyatida go`zal, benazir va betakror badiiyat namunallarini yaratayotgan hassos shoira Halima Ahmedova qalamiga mansub.»Vatan» she`ridan olingan. Rayhon, tuproq obrazlariga yuklatilgan badiiy fikr Vatan tushunchasini butunlay yangicha talqin etishga olib kelgan. Asarning nechog`lik asl she`rligini badiiy-estetik salohiyatini poetik obrazlar zimmasidagi ohorli mazmunbelgilashga yana bir karra ishonch hosil qilasiz.

Men tug'ilgan kunimdan boshlab,
Talpinganim sen bo'lding, ishon.
Sening zarra-zarralaringda
Haq jamoli bo'ldi namoyon.

Tuproq – ona timsolida gavidalanadi. Barq urgan rayxonlardan onasining hidi keladi. tabiatga jon bag'ishlagan, atrof-tevaragida barq urgan, tuproqqa ko'rk-malohat, jon-joziba baxsh etgan jamiki go'zallik xalq tajallisidir.

Insoniyat tarixida ishq-muhabbat vasfiga, sadoqat va xiyonat, ko'ngil erki va makr-riyotalqinlariga shunchalar ko'p she'rlar bitilganki, g'o'yo bu tushunchalar haqida aytilmagan gap qolmagandek, muhabbat lirikasi daftorida bo'sh sahifa qolmagandek tuyuladi. Xayolimizda tug'ilgan bu taassurot aldamchi taassurotdir. Aslida o'zbek lirikasining bugungi nurafshon qiyofasini muhabbatnomasiz tasavvur etolmaymiz.

Taniqli shoir Abdulla Sher muhabbatni abadiy bahor sifatida talqin qiladi. Darhaqiqat, har bahorda chandon ochilgan, yangidan qiyg'os gullagan borliq tarovati ruhimizga, Ma'naviyatimizga doimo go'zallik bag'ishlaydi. Gul chiroyining qaytalanishida, gul g'unchalarining takrorlanishida, go'zallikning o'zgarib, yangilanib turishida hayotning davomiyligini tasdiqlovchi azaliy va abadiy haqiqatni, inson shaxsiyatining esa kamolot boqiyiligini ko'ramiz.

Abdulla Sherning ishonch-etiqodiga ko'ra, muhabbat «inson umrining har doim, to adbadgacha davom etishini taminlab turadi. U muntA`zam ravishda insoniyat daraxtining mevasini yana daraxtga, darxtni yana kurtakka, kurtakni yana gulga, gulni yana mevaga aylantiradigan shrlı hodisadir». Ushbu xususiyatlar mohiyatan cheksizlik xarakteriga ega. Hayot – tabiatan

o`zgarishlar, yangilanishlar jarayoni asosiga ko`rilganidek, Ma`naviy-intellektual takomil ham chegara bilan belgilanmaydi...

Kechagi kun kelajakning ko`zgidir. Unga qarab kelajak o`zini sozlaydi, pardozlaydi, yani ezgu amollardan andoza olsa, illatlardan tegishli xulosalar chiqaradi. Sotsialistik-totalitar tuzum qiyofasini ko`plab ijodkorlar yaratishga harakat qilishgan. Lekin bizningcha, ular orasida Shavkat Rahmonning «Xonadon» she`ri alohida ajralib turadi. Chunki unda hamma ham sezavermaydigan, seza olmaydigan tuzumning ichki «mashinasi» o`ziga xos tarzda ifoda topgan. Shoir yozadi:

Bunda hamma o`zini sevar,
Tag'in sevar nozik gullarni.
Chaqmoq ko`zli bolalar eams,
O`stirishar faqat qullarni.

Bu nozik gullar o`z injaligi, go`zalligi bilan kishi qalbida nozik tuyg'ular uyg'otuvchi tabiiy gullar emas, balki «xonadon»dagi axloqsizliklarga ishora. Yani chiroyli qizlarni yaxshi ko`rishadi, demoqchi shoir. Bunday muhitda ruh o`ladi, ruh yo`q joyda orzu-xayollar, tuyg'ularga yo`l bo`lsin. Ruh yo`q joyda g'urur ham bo`lmaydi. G'urursiz inson esa, qullikka yaraydi, xolos.

Nafas olmay o`taman har gal,
Uf-f, naqadar o`tkir anqiydi
Irib ketgan orzu-xayollar,
Chirib ketgan tuyg'ular hidi.

Shavkat Rahmon narsa va hodisalarga katta mano yuklaydi, ulardan falsafiy umumlashmalar chiqaradi. Natijada ular jonsiz narsa emas, jonlilik davu qiluvchi tushunchaga aylanadi.

Shavkat Rahmonning qalb ko`zi ochiqligidan hamma narsani yorqin ko`radi, zakovati kuchliligidan barcha narsaning mohiyatini chuqur idrok etadi, ruh tetikligidan kelajakka nekbin boqadi va bularni she`riyatida ifodalab kishilar ko`nglida g`urur, umid va ishonch chirog`ini yoqadi.

PanoH so`radimmi borimni echib,
O`zimmi urdimmi biror eshikka?
Qaltis lahzalarda orimdan kechib,
Kirdimmi sichqonlar kirgan teshikka?

Shavkat Rahmon she`rlarining aksariyati juvonmardlik ruhi bilan sug`orilgan. U millatning zabun holidan, sho`roviylar oyog`i ostida toptalgan Vatanining nochor va pajmurda ahvolidan o`rtanadi.

Soddalik va oddiylik – buyuklikdir. Chunki unda samimiyat, qalb yaqinligi, insoniylik, xalqona falsafa xalqona tarzda ifoda topgan bo`ladi. Shoir Muhammad Yusufning she`rlari shunday – sodda va samimiyligi bilan kishilar qalbini rom etadi. O`zbekiston Qahramoni davrimiz adabiyotshunosligining darg`alaridan biri O.Sharafiddinov bu haqda shunday yozgan edi: «Muhammadning she`rlari bir qarashda juda sodda, jo`n yoziladiganga o`xshab tuyuladi. Ammo unga o`xshatib yozib ko`ring-chi? Qyalingizdan kelmaydi. Uning oson yoziladiganga o`xshab ko`ringan misralari muxlislarini yig`latadi, kuldiradi, o`z og`ushiga tortib oladi».

Bu ayni haqiqatdir. Muhammad Yusufning she`rlari sof milliyligi, milliy ruhning mujassamligi bilan ajralib turadi. U chiranib she`r yozmaydi, so`zlarning o`zi go`yo tabii ravishda oqib keladi. U miyani chatnatib masala, g`oya izlamaydi. Shoir buni kashf qiladi. Tasvirlardan ruhiy vaziyatlar keltirib

chiqaradi. Shundan uning she`rlari maftunkor va jozibali. Uning she`rlari mazmunini og`zaki gapirib yoki bayon qilish qiyin. Uning she`riy matnidan ajratilgan so`z o`z mohiyatini yo`qotadi. Tabiiylik deb mana shuni aytish lozimga o`xshaydi.

O`zdan o`tganidan o`zimiz ogoh,
Ikki elka to`la bir dunyo gunoh,
Nasib etgaymi endi odamdek o`lmoq?
Odamdek yashamay umr o`tkazdik.

Muhammad Yusufning qator she`rlari kishi nomlari bilan ataladi. Buni ko`rgan kitobxon dafatan she`r biror kishiga bag`ishlangan madhiya ekan-da, degan fikrga kelishi mumkin. Lekin she`rning bir bandini o`qigandanoq bu fikri asossiz ekanligini sezadi. Chunki ularda hayot haqiqat – surur va fojeaviylik, insoniy drama mavjud. «Xursanoy opa» nomli she`rida quyidagi misralarni o`qiyimiz:

Kecha nodonchalar qilishib huzur,
Haykalin tiklashib, haykalin buzib,
Bugun biri kelsa, so`rashib uzr,
Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa.

Ana farishtangiz turdi ham go`rdan,
Joyi to`rda edi - berishdi to`rdan,
Sizda ham bor ekan, manglayda sho`rdan,
Xursand yashash qiyin, Xursanoy opa.

Shoirning «Said Ahmad», «Mo`minjon», «Ma`ruf Jalil» nomli she`rlari ham shular jumlasidandir.

Ko`rib turganimizdek Muhammad Yusufning she`rlari sodda yozilgan. Unda jimjimador so`zlar, tasvir vositalari yo`q darajada. Lekin yurakka yaqin, kishi tuyg`ularini qo`zg`aydigan xalqona ohang mavjud. Soddalikda ulug`lik mujassam deb bekorga ta`kidlanmagan ekan.

Keyingi davrda intellektual realizm deb nomlanayotgan adabiy yo`nalishga xos xususiyatlar, ko`proq ikkilik, uchlik, to`rtlik, beklik, oltilik, ettilik, sakkizlik singari poetik shakllarda ruboiy sonet kabi lirika janrlariyu sarbastdagi izlanishlarda ko`zga tashlanadi. Bu borada xalq shoiri Muhammad Toirning «Ikkiliklar»i, Miraziz A`zam, Abduvali Qutbiddin, Faxriyorning sarbastdagi badiiy puxta asarlari, G`ulom Mirzo, G`uzal Begimning uchliklari, Gulchehra Jo`raevaning «Istiqlol va Iqbol egizak ekan», Tursun Alining «Ko`ngli uzra xazonrez fasli», Oygul Suyundikovaning «Ko`ngil tonglari», Munavvaraning «Yurt ishqini tuttim yurakka», Oydinnisoning «Sen» turkumlari, Bahrom Ro`zimuhammad, Rauf Subhon, Mirzo Kenjabek, Vafo Fayzullo, kabi shoirlarning inson zohiriy hamda botiniy hayotini badiiy o`rganish orasidagi izlanishlari diqqatga loyiqdir.

Intellektul realizm avvalo so`zdan badiiy fikr salmog`ini talab etadi. Miraziz A`zamning keyingi yillar lirikasi, xususan, «Ihvon ut-tayr» («Qushlar do`stligi») turkumidagi she`rlar badiiy mano ohorli salmog`i bilan etiborga loyiqdir. Agar birgina «Ihvon ut-tayr» she`rini oladigan bo`lsak, Ma`naviy-axloqiy, aqliy etuklik jamiyatlarni yuksaltiradi, ko`ngillarni tozartiradi, elatlarni qadrdonlashtiradi, qadrlar shanini ulug`laydi, degan fikr ustuvor.

Ramzlarga, taxayyulli tafakkur uyg`otgan timsollar asosiga qurilgan she`riyatning 20-asrning ikkinchi yarmi va 21-asr boshlaridagi milliy lirika o`rni alohida ta`kidga loyiqdir. Mirazizi A`zamning so`nggi yillar lirikasi hamda «Qalbimda siylaganim» she`rlar turkumi samarali izlanishlar namunasidir. Ko`ngil hurriyati, tuyg`ular erki singari yuksak Ma`naviy-axloqiy, intellektual qadriyatlarni yoqlashi, himoya qilishiga ko`ra, Miraziz A`zam lirikasi badiiy-estetik qimmat kasb etadi.

Men qu tilini bilgim keladi,
O`larni yupatgim keladi.
Go`zallikdan gap ochib, garmoniyadan
Bir kuy kuylagim keladi.
Har kalay qushlarning do`stligi
dunyo do`stligi bo`lajak.

Ushbu misralar shoirning «Ihvon ut-tayr» she`ridan. Bosh mano shundaki, inson hamisha o`zi-o`zini kamolotga etaklaydi. Fikran va ruhan kamolotga yuz tutganligi uchun ham uning tirikligi mazmunli. Bu narsa jamiyatlarning hayotini muttasil yangilab turadi. Ellarni, elatlarni bir-biriga qadrdonlashtiradi, degan ibratli fikrdir.

Nogoh oyog`ingga kirgan ul tikan,
Bilki, o`zing ekkan yomonlik ekan.

Ko`zgu bilan ko`rishsang gar, yuzing so`zlar,
Diling bilan tillashsang gar, ko`zing so`zlar.

Omad ko`kdan tushmas, u ham felingdan,
Qo`lingdan bermasang, bergin yo`lingdan.

Ushbu satrlar Mahmud Toirning «Ikkiliklar» turkumidan olingan. Shoirning peysaj lirikasida, insonning tabiat va jamiyat ruhi yoritilganshe`rlarida mushohadakorlik yaqqol sezilib turadi. Xalqona hikmatga yo`g`rilgan fikr tiriklik saboqlari, hayotiy ibrat ma`nosini o`ziga singdirgan holda namoyon bo`ladi. Xususan, insonning feli-atvori barcha

qilmishlariga bir ko`zgu. Yaxshilikni ham, yomonlikni ham ichidagi odam boshqaradi.

Mahmud Toirning «Ikkiliklar»iga Sharq poetikasining tasiri kuchli. Xususan, didaktik mazmun uning asosini tashkil qilarkan, hayot saboqlari, tiriklikdan orttirilgan ibrat ko`proq etirof tarzda ifodalanadi. Ikkiliklar shoirning ko`p yillik kuzatishlari, odamlar bilan muloqotlari, ko`rgan-kechirganlaridan uqilgan manolardir. Ko`ngilning qatim-qatimlaridan sizib chiqqan etrofilaridir. Ular xayoliy zaminga qurilgani bois ham tasirchan va ibratli.

O`tgan kun – umrdan uzilgan tomchi,
Qo`lingdan kelsa gar bir ushllab qol-chi.

Umrlar yugurik, misoli yorug`lik, shu boisdan ham uning hech bir lahzasini ushlab qololmaysan. Faqat atrofdagilarga ko`rsatilgan yaxshilikkina, tiriklikka tutash yorug`likkina umrni uzaytiradi

Ovoza qilinmay qilingan savob,
Mashharda boshingga tushuvchi oftob.

Shoir faqat ko`rgan-bilganlarini emas, yana o`ylagan, ko`nglidan kechgan asnolarni ham jonlantiradi, ular boshdan kechirilgan, hayotdan uqilgan ibratli daqiqalar bo`lganligi boisdan ham manoli kechinmalar g`oyaviy jihatdan o`zaro bog`liq, badiiy mazmun biri ikkinchisini to`ldiradi. Bu narsa har bir ikkilikning ichki qurilmasidagi badiiy manoning o`ziga xosligini taminlagan. Chunonchi kechmishdan fikr, undan esa, ibratli mano zohir bo`layotir.

Kim siylab aytadi, kim tig`lab aytar,

G'ar qandoq aytilsa, bil shundoq qaytar.

Boychechak yuz ochsa, qishni qaritar,
Qishdan qolgan dardlarni ham aritar.

Shoirning ikkiliklaridagi badiiy fikr yalang'och o`git, pand-nasihatdan yuqori. Ulardagi mushohadakorlik, shaklan qisqalik ifodaning tiniq va lo`ndaligi, kechinmadan sizib chiqayotgan fikrning ichki quvvati ikkiliklarga aforistik mazmundorlik bag'ishlagan. Lirika janrlari hamda poetik shakllaridagi izlanishlar orqali intellektul realizm ilgari surayotgan biddiy-estetik kontseptsiya shundan iboratki, ezgulik, go`zallik yaratgan inson baxtga munosibdi; zero yorug'likning o`zi baxt mazmuni demakdir. Inson o`z ruhiyatini ziyobax egani sayin tirikligi nurli, hayoti farahli bo`la boradi, degan manoni yoritishga safarbardir. Tabiiyki, bu ijodkordan falsafiy fikrlash tarzini taqozo qiladi. Bu jihatdan tuyg'u-kechinmalar, o`y-mushohadalar tahlili ushbu adabiy yo`nalishga xos etakchi xususiyatlardir. Bu narsa ko`proq fikrchan holatlar tasvirini, kayfiyatlar manzarasini, kechinmalar ma`nosini ifodalash tarzida zohir bo`lmoqda. Shu boisdan ham ong-shuurimizda kechgan fikrlarning suratlari bir-biriga ulanib ketgan tuyg'ular tizimini eslatadi.

Shoira Oydinnisoning «Sen» turkumiga kirgan she`rlaridan birini kuzataylik:

Sen – har kecha ko`zimga cho`kkan
shirin tushsan.
Tushlar – mening umrim
O`ngda uxlab,
Tushda uyg'onaman, men,
borlig'in uchun.

Shoira she`rining o`ziga xosligi shundaki, unda kayfiyat, holat, kechinma taassurot bari jamlanib, fikrni suratlantirishadi. Yani tuyg'ularning manoli manzaralari xuddi kino tasmalaridagi tasvirday birma-bir ko`z o`ngimizda jonlana boshlaydi. Ushbu poetik ifoda Oydinniso ijodiy yo`sini, tafakkur tarzi uchun xos xususiyatga aylanib borayotganini kuzatish mumkin.

Sen – ko`ksimda qad rostlagan tog'san.

O`zimni ko`tarib olaman

Senga chirmashib.

Yuragimda o`pirilgan jar ham

O`zingsan.

Senga etish uchun qulayman o`zimga.

«Sen»turkumi lirik qahramon tasavvurida jonlangan mahbubining poetik timsollarini (tog', qo`shiq, og'riq, yosh, hayqiriq, osmon, tong, nayson yomg'iri, shabboda) kechinmalarga aylangan holatlarini suratlantiradi. Ular ko`ngil etiroflari, nolalari, jolalari, iltijolari tariqasidagi kechinmalar mazmunini yoritadi.

Ruhiyat dunyosi bag'oyat sirli va jozibali. Uning idrok va ifoda usullari ham shunga monand rang-barang turli xil. Shoirlarimiz hayotdan, voqelikdan orttirgan taassurotlari, tajribalari shaxsiyatlari boyligi, olam va odam sir-sinoatlarini tushunish hamda tushuntirishdagi o`ziga xos individualligini belgilaydi. Badiiy-estetik tafakkur tabiatidagi ijtimoiy-falsafiy, badiiy-axloqiy mazmun adabiy yo`nalishlar mohiyatini, xarakterini taminlaydi.

Shoirlarimiz o`z ideallaridagi go`zallik belgilarini dirik qahramonlari tabiatida ifodalar ekan, tasaavur va tushunchalaridagi ko`rimsiz alomatlarni ham muayyan bir qiyofada mujassamlashtiradi. Individual unsurlar tizimi lirik qahramonni tiniq bir xarakter qiyofasida namoyon etadi.

Ana shu o`ziga xos xususiyatlariga ko`ra shoirlarimizning lirik qahramonlari bir-biridan farqlanadi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Oydin Hojjeva, Miraziz A`zam, Abdulla Sher, Sirojiddin Sayyid, Mirpo`lat Mirzo, Iqbol Mirzo, Ikrom Otamurod, Halima Ahmedova, Salim Ashur, Sirojiddin Rauf singari ijodkorlarimiz tafakkur qirralari: madaniy, ma`rifiy, tarixiy, dini-axloqiy qadriyatlarga, ko`ngil tuyg`ulariga munosabatiga ko`ra o`zaro ajralib turadi. Millatparvarlik, insonparvarlik g`oyalari ularninghar bittasida o`ziga xos namoyon bo`layotganligini kuzatishimiz mumkin.

Guvohi bo`layotganimizdek, o`zbek she`riyati, xususan, lirikasi mustaqillik yillarida xalqni, ayniqsa yoshlarimizni milliy qadriyatlarga sadoqat, istiqlol ruhida tarbiyalashda o`z vazifasini sidqidildan bajarmoqda, milliy mafkuraning shakllanishi va taraqqiyotini taminlashda asosiy omillardan biri sifatida tobora faollashmoqda.

2-bob. HOZIRGI O`ZBEK SHERIYATINING G'OYAVIY- BADIY XUSUSIYATLARI

Mamlakatimiz mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlaboq matbuot va so`z erkinligi, ijod erkinligi masalasi kun tartibiga qo`yilib, axondagi eng ilg'or mamlakatlardagi singari tegishli bosqichlarda qonunlashtirildi. Bu tarixiy hodisa olimlar va jurnalistlar, shoir va yozuvchilar imkoniyatlar eshigini katta va keng ochib berdi. Ilgarilari qat'iy taqiqlangan mavzular – ajdodlarimizning sharaflari tarixi, diniy qadriyatlarimiz, milliy urf-odatlarimiz haqida bema'lol qalam tebratish, ularni targ'ib va tashviq qilish mumkinchiligi tug'ildi. Sharq xalqlari, xususan o`zbeklar minglab yillardan beri etiqod qilib kelayotgan islomiy dunyoqarashni o`rganish ham o`sha yillarda taqiqlangan mavzulardan bittasi edi. Shuning uchun ham adabiyotshunos va tarixnavislarimiz Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy, Najmiddin Kubro kabi ijodkorlar va ularning adabiy meroslari haqida mavjud haqiqatni ayta olmadilar. Shoirlarimiz ko`nglida ko`karib turgan diniy-irfoniy tuyg'ular samarasi she`rlar iforidan o`quvchi vatandoshlarini bahramand qila olmadilar.

Ijodkor va olimlar shu manoda mustaqillik kunini g'oyat sog'inishgan edilar. Chunki Qurr`oni Karim va hadislardagi musulmonchilik qoidalarini she`r orqali sharhlash, ularning mohiyatini kitobxonlar ongiga singdirish, targ'ib qilish tajribasi qadimdan mavjud. Bunga Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Imom Yahyo ibn Sharaf an-Navaviy kabi shoirlar yaratgan «Arbain»lari misol bo`la oladi. Islomiy aqidalarga ko`ra, aniqrog'i payg'ambarimiz (s.a.v.) hadislarida uqtirilishicha, kimki qirq hadisni yod olib, uning atrofdagilar orasida targ'ib qilsa, u kishi uchun do`zax o`ti xaromdir. «Arbain» so`zi «qirq» degan manoni anglatib, shoirlar Olloh vasli niyatida ushbu asarlarini yaratgan bo`lsalar ajab emas.

Ta`kidlash lozimki, «Arbain» yaratish bugungi she`riyatimiz uchun ham yot hodisa emas. Ushbu jiddiy va muqaddas amalga birinchi bo`lib

O`zbekiston xalq shoir, O`zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov qo`l urdi. Sharq she`riyatida yaratilgan «Arbain»larda avval hadisning arabcha, forsha yoxud turkiy tarjimasi keltirilib, keyin she`riy varianti berilar edi. A.Oripov ushbu an`anadan chekingan – u to`g`ridan-to`g`ri hadisning she`rga solingan shaklini o`quvchilar diqqatiga havola qilgan. Lekin shunga qaramay, shoir maqsadiga erishgan. Chunki gap shaklda emas, mazmun va mohiyatdadir. Abdulla Oripov o`zining «Haj daftari» va «Hikmat sadolari» she`riy to`plamlari bilan bugungi she`riyatimizga diniy-ma`rifiy g`oyalarni birinchi bo`lib olib kirdi.

Shoir ellikta she`riy hadisni o`z ichiga olgan «Hikmat sadolari» turkumida diniy manbalardan olingan lavhalar va xikmatlardan samarali foydalangan holda kishilarni poklikka, to`g`rilikka da`vat etadi.

U senga ko`rsatdi hidoyat yo`lin,
Yurgil yo yurmassan, o`zing bil inson,
Balki sen tutggaysan Iblisning qo`lin,
Yaratgan Xoliqqa barchasi ayon.

Abduvali Qutbiddin ham islomiy yo`lda talay she`rlar yozgan shoir. Uning she`rlarining mag`zini maxsus tayyorgarliksiz tushunish birmuncha qiyin. Uning she`rlaridan bahra olish uchun Ma`lum darajada islomiy bilimga ega bo`lish talab qilinadi. Masalan, Qurr`onda oxirat hayoti bu dunyo hayotidan yaxshiroq ekannligi ta`kidlanadi. Lekin unga bu dunyoda yaxshi tayyorgarlik ko`rmasa etishib bo`lmaydi. Bu dunyo hayotidan afzal oxirat hayoti borligiga ishonish dunyoda musibat etgan, azobda qolgan kishilarning ko`nglini tinchitadi, musibatlarga nisbatan bardoshli bo`lishga chorlaydi.

Abduvali Qutbiddinning «Baliqning tishila tilimni tildim» misrasi bilan boshlanuvchi she`rining mohiyatini shu xil fikr tashkil etadi.

Baliqning tishila tilimni tildim,
Yuragimni urchuqday uch aylantirdim.,
Ko`zimni qiynadim,
Qiyvog'im qiziq... yayradim.

Bu misralarni o`qigan kitobxonda kishi qiynoqdan ham yayrashi mumkinmi, degan tabiiy savol tug'iladi. Bu erda qiynoq jismoniy manoda emas, balki poklanish yo`lidagi ruhiy azoblanish, ruhiy qiynoqdir. Kishi ko`p gunohni tili orqali qiladi. Ma`lumki, baliq har jihatdan pok va begunoh. Chunki u hech qachon gapirmaydi. Shoir gunohlarga yo`l qo`ygan o`z azolarini jazolash bilan poklanadi, tavba qilish bilan gunohlardan tozalanadi. Lirik qahramon shundan keyin pok bo`lgan ruhiga ergashadi. Keyingi ishlari faqat ezgulikdir. Oqibatda jannatga erishadi. Oxirat hayotini shunday tasvirlaydi:

Majnuntol darchasin ochdi, kiritdi,
Yuz bitta qiizidan birin tanladim.
Xivich qasrlarda barglandim biram...
Yayradim.
Dunyoni tark etdim, hur safar etdim,
YOrimla tuyqusu bexabar ketdim.
O`n besh kun to`y berdim
Dorulbaqoda...
Yayradim,
Yayradim,
Yayradim-a-a-a-a!

Guvohi bo`layotganimizdek, Abduvali Qutbiddin o`z g'oyasini g'ayritabiiy manzaralar, tasvirlar zamiriga singdiradi. Sirtidan qaraganda

uning iashbehlariga yukalatilgan fikr, tuyg'ular ko'ngil ko'zgusida aks etgan mutlaqo noreal, tushdagi kabi tartibsizday ko'rinadi. Lekin chuqurroq mushohada qilinsa, uning mohiyati anglashiladi.

Shoir Sirojiddin she'riyatining muayyan qismi islomiy asotirlar va g'oyalar asosida yaratilgan. U «Dunyo masali» she'rida shunday yozadi:

Ranju g'am va azaldan barobar kelur,
Alar bir-biriga birodar kelur,
Nechun sevinchlaring bir xil, ey, dunyo,
Nechun armonlaring bunchalar rangin? –

- degan savol qo'yarkan, insonlarning amallardan hayron bo'ladi. Yani xoru zabunlikda qolgan insonga ko'mak uchun o'z jinsi emas, sut emizgani jayronlar kelganidan, kishilarning badbinligidan kuyinadi. Ushbu she'ni tushunish uchun ham kitobxon muayyan darajada Qurr'oni Karimda ilgari surilgan fikrlar bilan, musulmonchilikning bazi qoidalari bilan tanish bo'lishi darkor.

Umuman olganda, islomiy qarashlar, diniy falsafa barcha zamonlarda bo'lgani kabi hozirgi kunda ham Ma'naviy-axloqiy qarashlarimizning asosi sifatida, tarbiya manbai sifatida muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

Istiqlol davri she'rlarining katta ko'pchiligida hamma davrlardagidek muhabbat mavzusi keng ifoda topmoqda. Ma'lumki, ushbu tuyg'uning sarhadlari nihoyatda keng. Shoir o'z ishqiy tuyg'usini yaratganga, Vatanga, xalqiga, ota-onasiga, do'stiga nisbatan izhor qilishi mumkin. Lekin bular orasida mahbubaga nisbatan muhabbatga bag'ishlangan she'rlarning umri uzoq va tasirchan bo'ladi. Haqiqiy muhabbat tuyg'usi bilan yo'g'rilgan she'riyatning tasir kuchi har narsadan kuchliroq bo'ladi. Bugungi muhabbat haqida bitilalyotgan she'rlar ichida mana shu xil quvvatga egalari ham oz

emas. Bu asarlarning aksariyati shoirlar va yosh shoirlar tomonidan yaratilayotgani she`riyatimizda ro`y berayotgan evrilishdan dalolatdir.

Alisher Navoiy «Hayrat ul-abror» dostonida haqiqiy oshiq haqida shunday yozadi: «Haqiqiy oshiq deb sen bilki, u dard bilan yashaydi, uning tili ham, dili ham, ko`zi ham pok bo`ladi. Ishq uni «men»idan pok qilib, hatto fano o`tiga hashak qilgan bo`ladi. Yuzini sariq qilib, dardini yashiradi, ko`zini ariq qilib yosh oqizadi.»¹ Bundan ko`rinadiki, haqiqiy oshiqning axvoli dil izhoridan emas, holatidan bilinadi. Shoir o`zlarining ishqqa muhtaloligini so`zda izhor qilishmaydi, ruhiy kechinmalarini shunchaki so`z bilan aytmaydi, balki holatlarini tasvirlash orqa`li bildirishadi. Hosiyat Bobomurodova «Bir daryo oqa`r ko`nglimda» turkumiga kirgan she`rlaridan birida shunday yozadi:

Kim chertar eshikni ohista, bilmam,
Ko`ksimdan sug`rilib chiqqanday tikan.
Qushday uchib borsam, chopiblar borsam,
Bag`ri cho`g` hamdamim hazonlar ekan.

Bu erda birovga intiq odamning holati, ruhiyati bor ranglari, ohanglari bilan ifodalangan. Ma`lumki, kimgadir intiq odamning butun vujudi quloqqa aylanadi, xayolida faqa`t uning yodi kezadi, qo`li har qanday ishdayu, fikri-yodi kutganida bo`ladi. Sherdagi lirik qahramon xuddi shu holatda. Uning iztiroblari ayniqsa, to`rtinchi misrada yaxshi ochilgan. Lirik qahramonning kayfiyati keyingi bandlarda yanada yaqqolroq namoyon bo`la boradi:

YOmg`ir, shamol, hazon, to`xtang, qayinglar,
Eshitib ketinglar qo`shiqlarimni.
Yo`qlab kelmasimga borib aytinglar,

¹ Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. Toshkent, Adabiyot va san`at nashriyoti, 1974, 73-bet.

Yig'lab ochib qo'ydim eshiklarimni.

Jismoniy emas, ruhiy iztirobdan yig'lash ruhiyatning poklanishidir.
Haqiqiy muhabbat hijroni esa, botiniy iztirobdir, yani bu ham poklanishdir.

X.Bobomurodova «Jonimning egasi» she'rida o'z sevgilisiga shunday murojaat qiladi:

Bahor olib ketsa bahorlarimni,
G'amlar bosib olsa ne horlarimni,
Kuzlar to'kib ketsa ohorlarimni,
Jonimning egasi, so'nsam maylimi?

Bu iltijo albatta, umumlashma xarakteriga ega bo'lib, mashuqalar sadoqati, vafosi haqida ajoyib topildi.

Shoira Zebo Mirzaeva she'rlarini o'qiganda «Haqiqiy she'rning mazmunini gapirib bo'lmaydi, uni his qilish kerak» degan fikrning to'g'ri ekanligini etirof qilasan kishi. Darhaqiqat, tuyg'u va hissiyotni hikoya yoki bayon yo'li bilan aniq tasvirlab, suratini chizib berish mushkil bil amal. Lekin uni muayyan matn orqali his qilish, tuyish mumkin. Bu amal kishi Ma'naviyati va ruhiyatini boyitadi va oziqlantiradi. Shoiraning «Tamom» she'rini kuzatib ko'raylik.

Men endi ketaman...

Uni kechirdim.

Kechirdim eng so'nggi g'animimni ham.

Endi tinch yashayman tog'lar yurtida

Daraxtlar,

Shamollar,

Maysalar bilan...

Bu erda lirik qahramon «men»i sevimligidan yoki dil izhori rad etilganidan tushkil kayfiyatda emas, balki ruhiga yaqin odamni topmaganidan ko`ngli o`ksiyapti. Hayotda ruhi uyg`oq kishilar kamligidan o`ksiyapti. Chunki uning ruhi baland, Ma`naviyati g`oyat yuksak. Shundan nihoyatda kechirimli, hatto g`animini ham kechira oladi. Axir odam tabiatan noqis bo`lsa, buning uchun uni ayblab bo`lmaydi-ku. U tabiatdan ko`ngliga yaqinlik izlaydi. Majnun – Qays odamlardan mehr-oqibat ko`rmagach, dala-dashtda yovvoyi hayvonlar bilan do`stlashganidek, Zebo Mirzaevaning lirik «men»i ham tabiat qo`ynidan panohtopadi:

...Dardsiz nigohlardan, g`amsiz ohlardan,
Shu o`t-o`lanlarga yaqinman ko`proq.
Avliyodek cho`kka tushib o`tirgan
Qoyalar bag`ridan topaman panohtopadi.

Pahlavon Mahmud bir ruboiysida:

Ko`xna qalam tole emas, dog` bitar,
Dard ekaman, bir-bir unib bog` bitar,-

deya yozgan edi. Demak shoiraning qoyalar, daraxtlar, maysalarni diliga yaqin olishi bejiz emas, chunki ularning bag`ri to`la dard, lirik qahramonga «dardsiz oh»lardan ko`ra yaqin. Shoiraning tabiatga ko`chgan iztirobi, dardlari ham meva tugadi. Bu ruhiy erkinlik, Ma`naviyat va ma`rifatdir. Sherning quvvati ham mana shunda. Shoirayozadi:

Ko`zim tushsa kuyadi oftob,
Qo`lim cho`z sam, to`kilar dilim.

Aytsam, gunoh aytmasam azob,
Bu qanday dard,
Bu qanday o`lim?

Bu ishq dardi. Uning otashi shunday kuchliki, yaqinlashsa oftobni kuydiradi. Uning g'am shulasi dilni shunday iztirobga soladiki, bunga dosh berolmagan ko`ngil oh uradi. Bu o`x o`tidan butun olam yonadi. Bu o`tda lirik qahramon ham qaqnus misol kuyadi. Mana shu xil kuyib-yonishdan haqiqiy oshiq-mashuqlik yuzaga keladi. Bunday fikrlarni muhabbatning mohiyatini qalban his qilgan, hamda butun vujudidan o`tkaza olgan ijodkorgina ayta oladi. Zebo Mirzaeva shunday shoira.

O`zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning she`riyati tabiat bilan uyg'un, muhabbat bilan limmo-lim. Yurakda ildiz otib Vatan tuprog'ida ko`kargan, yurt osmoni tomon bo`y cho`zayotgan sermeva daraxtga o`xshaydi

Milyon yilda meni yaratdi hayot,
Meni so`rab tog'lar qator cho`kdi tiz.
Nahot anglamaysan, bilmaysan nahot,
Axir men bittaman, yagona yolg'iz?!

Shoirning «YOlg'iz» she`riy – falsafiy asar. Shoirning lirik qahramoni – «men»i inson bilan birlashib, umuminsoniylik tuyg'usi ifodasi darajasiga etadi.

Iqbol Mirzo she`rlarining ohangi ravon, qofiyasi to`q, satrlari to`kilib keladiki, shoir badiiy tasvir vositalarini qo`llay deb fikrlamaydi, balki quyilib kelgan misralar qatidan badiiy vositalar ko`z ochaveradi:

Dirillardi mendan qochib varraklar,
Varragimdan cho`chib uchga laylaklar,

Hurkak-hurkak titrab tunda yuraklar,
To`lqin-to`lqin tortar edi nolalar.

Birinchi misrada jonlantirishning tashxis ko`rinishi bor, birinchi misrani yakunlagan «varraklar» so`zi ikkinchi satrni boshlagani uchun radd ul-ibtidoning tasbe ko`rinishi zohir bo`lmoqda. Uchinchi-to`rtinchi misralardagi takror so`zlar mukarrarni hosil qilgan. Keyingi ikki misrada ham tavze – tovush takrori mavjud. Iqbol Mirzo tuyg`ularni manzaralarda ifodalaydigan musavvir shoir. Bunga bolaligidayoq qalb ko`ziga muhrlangan tabiat sabab:

Ho`qandi latifda
Karnayguldan uchar bolari kuyi,
Rayhonlar chayqalib chaladi g`ijjak.
Gumbazlarga etar tufroqning bo`yi,
Sipohi teraklar qoqmaydi mijja.
Dil uyg`oq.

Shoir she`rlarida tovushlar, so`zlar o`zlari hosil qilgan ohangda yayrab raqs tushayotgandek go`yo.

Shimoldan shaqaloq shamollar kelur,
Xalqumga xanjardek hilollar kelur,
Siynadan sitrilgan savollar kelur,
Rahmingiz kelmasmi?

Barcha misralarda tavze – tovush mutanosibligi bor, bandlar bir xil ibora bilan – refren bilan yakunlanadi. Shoir she`rda o`z holatining bag`oyat nochorligi haqida gapirib mahjubadan shafqat tilaydi. Lirik qahramonning «bo`m-bo`sh bog`lariga ko`klamlar keladi», «Azoblar, anduhlar, alamlar

keladi», uning «tunlari tangaday to`kiladi», ammo yorning rahmi kelmaydi. Shoir ko`ngini tashbehtar bilan bezab, tabiatni jonlantira turib, kutilmagan so`z o`yini bilan she`rxonni lol qoldiradi:

Rahmingi kelmasa,
O`zingiz keling.

Sher davomida ibora bo`lib kelgan to`rtinchi misra oxirgi bandda erkin birikmaga aylanadi, rahm jonlantiriladi: oshiq oldiga yorning rahmi kelmasa, o`zi kelsin. Odatda so`z o`yini shakldosh so`z, ibora, erkin birikma yordamida yuzaga keladi va u mahorat mevasidir. Shoir so`z o`yini qo`llarkan, radd ul-ajuz sanatini ham aynan «tovon» so`zi orqali hosil qilgan. «Tovon»ni shakldosh so`z sifatida qo`llab, tajnis sanatini paydo etgan.

Tovonimni qo`msab qabarar tuproq,
Qolarman tuproqning tovonlariga.

Shoir «Yuzim qaro bo`lg`usi» ham ibora, ham erkin birikma «yuzim qaro»ni qo`llab, so`z o`yini qilarkan, iyhom sanatini maydonga keltirgan. Umuman, Iqbol Mirzoning kutilmagan so`z o`yinlariko`p uchraydiki, bu shoir uslubidagi o`ziga xosliklardan biriga aylangan.

Dedim: «Qorasoch dilbar,
Dilimni tig` tilgusi.
Zulfga tegursam agar
Yuzim qaro bo`lg`usi!»

Iqbol Mirzo she`rlari insonning shaxsiy dardlarini insoniyatning dardlariga qo`sha olgan, insoniyatning dardlarini esa, shaxsiy dardlarga

aylantira olgan qalbdan to`kilgan fikr va ohang vobastaligidan hosil bo`lgan. «Huzur», «Ko`rinadi», «Dard», «Xudoga soldim», «Muhabbat», «Bug`doy so`z», «Dadam qabri», «Singan odam», «Bachkana kun» kabi she`rlar fikrimiz dalilidir.

Mustaqillik davri she`riyatining faol ishtirokchilaridan biri Xosiyat Rustamovadir. Uning she`rlarida dunyoviylik va ilohiylik birlashib ketadi. Shoira she`riyatiga munosabat bildirgan adabiyotshunoslar uning o`lim haqida ko`p yozishini ta`kidlaydilar. Sinchiklab qraganda bu fikrga qo`shilib bo`lmaydi. Uning she`rlari o`lim haqida emas, tiriklikka, hayotga behad muhabbat natijasi o`laroq yuzaga kelgan asarlardir.

Barcha narsaning tiriklik va hayotdir. Insonning mavjudligi shu ikki narsaga bog`liq. Shu ikki narsani sevmalik anoyilikdir. Shoira o`lim haqida so`z yuritganda tiriklikka, hayotga katta muhabbatni kuylaydi. Axir oshiqlik va mahbublik ham shu ikki narsaga bog`liq-ku. Xullas, Xosiyat Rustamovaning she`rlari kishida tushkunlik kayfiyatini emas, nekbinlik tuyg`usini uyg`otadi, ularni o`qib, hayotni qattiq sevib qolasiz, yashashga ishtiyoqingiz ortadi.

Shamollar ermaklab o`ynar,
Xazonni –
Taqdir chirpiratib otadi erga.
Rabbim, o`zing bergan mana shu
Jonni
O`zingdan yashirib qo`yay qaerga?!

Bu misralarni o`qib, vujudingiz zirqira ketadi. Shoira hayotni, tiriklikni sevishini hech kim aytmagan shaklda juratkorlik bilan ifodalashiga qoyil qolasiz. Uning istedodiga tan berasiz.

Qancha o`lik bo`lsa -

Ko`rdim demas er.
G'amni parvosiga keltirmaydi ko`k.
Yo`lovchi!!!
Yo`lovchi!!!
Qo`llaringni ber –
Men seni ertaga ko`ramanmi, yo`q?

Yo`lovchi kim? U – siz bilan biz. Shoira odamlarni, zamondoshlarini behad sevadi. Chunki hayotning shirinligi, turmushning tarofati ular bilan. Afsuski, ular omonot, ayniqsa, XXI asr taloto`plari zamonida ularni ertaga ko`rish, umuman, ertaga ham tirik bo`lish gumona. Shoiraning she`rlarida muhabbat tushunchasi ijtimoiylashadi, falsafiylashadi. Ma`lumki, insonning vujudidan tashqari hamma narsa uniki emas, unga vafo qilmaydi. Eru Osmon, Quyoshu Oy, yulduzlar, dov-daraxtlar – brchasi. O`zidan keyin ham ularning qolishidan lirik qahramon ularga tana qiladi. Lekin darrov fikridan qaytadi. Chunki dunyo deb aytilgan narsada halovat degan narsaning o`zi yo`q.

Davr she`riyatida o`z ovozi va sozi bor ijodkorlardan biri shoira Xurshidadir. U ko`pincha mumtoz adabiyot an`analari asosida asarlar yozadi. Uning she`rlarining aksariyati g`azal, masnaviy va muxammaslar ko`rinishida. Shuni alohida ta`kidlash kerakki, Hurshida mumtoz she`riy shakllarga zamonaviy yuk yuklashga, ularning mavzu ko`lamini ijtimoiy, axloqiy-ma`rifiy mazmun bilan boyitishga harakat qiladigan ijodkordir.

Hurshida mumtoz adabiyotdagi an`anaviy poetik obrazlardan foydalangan holda zamonaviy shaklda ham she`rlar yaratadi. Natijada mumtoz an`anaviy timsollar zamonaviylashadi, Ma`naviy, axloqiy yo`nalish olib, bugungi kun talablariga xizmat qiladi. Bu hodisa «Bulbul Gul domiga tushganda nogoh» misrasi bilan boshlanadigan she`rda yaqqol ko`zga tashlanadi. Gul va bulbul an`anaviy manoda, oshiq va mashuqa timsoli sifatida istifoda qilinadi. Lekin shoira asarida ular konkretlashgan,

insoniylashgan. Shoira buni atoqli otlar bilan atash orqali anglatadi. Bulbul gul bog'iga kelib o'z nag'masini boshlaydi:

Xonishin boshladi Bulbul ohista –
Zohiran xush chah-chah, botinan xasta
Ekanligin oshkor qildi bu kecha.

Lekin soxta oshiq bu safar maqsadiga erisha olmaydi, yani «Oriyat mulkiga» rahna sololmay, Gul yonidan jilishga majbur bo'ladi. Biroq Gulning dardida o'zining botinan xasta ekanligini oshkor etib, kuylashda davom etadi. Nihoyat o'z maqsadiga erishadi. Gul uning nolasiga ishonib, taslim bo'ladi.

Tuyg'ularini aqlga bo'sundira olmagan Gulning nadomatlarida katta haqiqat bor. Tafakkurdan tashqari harakatning barchasining oxiri voy ekanligi she'rda o'ziga xos ifoda topgan.

Zamonaviy o'zbek she'riyati yaltiroq g'oyabozlik va quruq chaqiriqdan kutilib bormoqda. Bu hol katta avlodga mansub shoirlar ijodini ham yashartirib, asarlarining jozibadorligini oshirmoqda. Oylin Hojievanning keyingi davr she'rlarida tashqi dunyoning holati emas, balki shoira ichki olamining nozik va o'zgaruvchan manzaralari chiziladi. Shoira teran mazmun bilan birgalikda ifodalar nazokatiga teran etibor qaratadi. Uning manzara she'ridagi

Kovushchalar to'la keng ayvon
Tunni haydab, turadi ushlab,
Tun xonaga kirolmay hayron,
Sahargacha chaladi hushtak.

Bu to'rtlikdagi har bitta so'z o'ziga xos majoziy mano tashiydi. Ayvonning kovushchalarga to'laligi o'zbekning ko'p bolali oilasini,

ayvonning tunni uyga kiritmay haydashi xona ichidagi chiroqdan boshqa xona ichidagi chiroqdan boshqa yorug'ligi bo'lmagan qishloq sharoitini, tunning sahargacha uyga kirolmay, hushtak chalishi izillagan qish izg'irinini bildiradi. Aytmay bildirish usuli she'rning tasir kuchini oshirib, unga samimiyat bag'ishlaydi.

Mavjud poetik an'analar soyasida qolib ketmaslikka urinish zamonaviy she'riyatning etakchi xususiyatlaridan biridir. Hozirgi shoirlar birov u yoqda tursin, hatto o'zini ham takrorlabqo'yimaslikka intiladi. Usmon Qo'chqor she'rlaridan birida hamma uchun tanish bo'lgan, eski tuyg'u muhabbatniohorli ifodalaydi:

Men ishq degan qismatning og'ir
Kiprigida yoshga aylandim.
Tomchi-tomchi tomdiu oxir,
Oxir, gulim, toshga aylandim.
Men tosh edim, o'tlar – sharorlar
Ushatmadi, ushatolmadi.
Kuzlar, qishlar, yozlar, bahorlar
Yumshatmadi yumshatolmadi.

Sevgining toshday qattiq yuraklarni ham yumshata oladigan qudrati she'rda «Sen ketdingu evrildi dunyo» tarzida ifoda etiladi. Usmon Qo'chqor she'rlaridagi «Zoriqar, zo'riqar, chingillar yodim» yoki «Qahqaha borligin angladi bulut, Quyosh orligini angladi olam, Ko'ngillar angladi dardning dardligin. Og'ochlar angaldi gullash shartligin. Qaytish lozimligin angladi qushlar» kabi ajoyib topildiq misralar kitobxon yuragini qitiqlaydi, tuyg'ularini toblaydi, ong-shuurini boyitadi.

Zamonaviy she'riyatda xalqona ohanglarga ehtiyojning ortib boratgani kuzatilmogda. Mumtoz she'rshunoslikda «Sahlu mumtani» deb ataluvchi sanat

mavjud. Bir qarashda bu usulda yozishdan ososn narsa yo`qdek ko`rinadi. Biroq buni uddalash maholdir. Unda fikrni ohorli aytish, fikrni lo`nda va maromiga etkazib aytish hammaning ham qo`lidan kelavermaydi. Mahmud Toir ijodida shenday misralar bor:

Ko`klam qabog`i
Muncha uyuldi.
Osmon ko`zidan
YOshi quyuldi.
Jismu jonimda
G`alat titroqlar.
Shabnamdan sharob
Ichar yaproqlar.

Tuyg`ularning obrazli tasvirini bu tarzda berish dushvor. Chinakam ilhom samarasi o`laroq yaraladi bu xil misralar.

Qutlibeka Rahimboeva «Qorako`zlarim» to`plamiga kiritilgan she`rlar xalqona tashbeh va metaforalarga g`oyat boy. Shu bois ham ular tasirchan va kishi ruhiga tasir etadi:

Oyning huqqasidan kumush keltirsam,
Yulduz tokchasidan idish keltirsam,
Nayson bulutidan yog`ish keltirsam,
Darmon bo`larmanmi, dardlaringizga.

«Oyning huqqasi (qutichasi)», «yulduz tokchasi» metaforalari, birinchidan she`rning badiiyatini taminlagan bo`lsa, ikkinchidan, qutichadan kumush, tokchadan idish keltirish istagida ayollargagina xos nazokat, ulargagina tegishli nafosat sezilib turibdi. Parchadagi «Darmon bo`larmanmi

dardlaringizga» yurakka yaqin, xalqona ibora ekani bilan ham fikrning tasir kuchini oshirgan.

YOsh shoir Bobomurod erali she`rlariga xos xalqchil ifoda tarzi ham, oobrazli tasvir vositalari ham hech kimnikiga o`xshamasligi, ohorliligi bilan ajralib turadi. Shoirning «Sukunat sibizg`asi» to`plamidagi «Arg`amchi yo`l» she`ridagi bu xil misralar diqqatga loyiq:

Arg`amchi, yo, arg`amchi
Dunyo ayyor do`konchi.
Sharbat uzatar, unda –
Ilon zahri bir tomchi.

Shoir to`rt misra she`rda benihoya tasirli va ohorli ohorli obrazni shundaygina o`quvchi ko`z o`ngiga muhrlab qo`ya. Qolaversa har bitta ijodkor dunyoga nisbatn ilon zahridan tayyorlangan sharbatni uzatayotgan ayyor do`kondor tashbehini qo`llagan emas. Umuman xalqona usuldagi she`r namunalari she`riyatimizning ildizlari millatimizning qadim kechmishiga borib tutashadigan asl o`zanlaridan mudom quvvat olayotganidan darak beruvchi hodisadir.

Poetik obrazda yangilik qilish shakldagiga qaraganda ancha murakkab vazifa. Lekin she`riyatning chin manoda yuksalishi ana shu poetik hodisaga ko`proq bog`liq. Ustoz shoir Abdulla Oripov yozadi:

Bir marta ko`rganman,
Faqat bir marta.
Oyning o`rog`iga yulduz qo`nganin.

Oyning o`rog`iga yulduz qo`nishi tabiatda umuman ro`y bermaydigan hodisa, ilmiy nuqtai nazardan mutlaqo xato gipoteza. Ammo shoir xayoli

samari bo`lgan ushbu yolg'onni she`rxon lirik qahramonning dilining oniy bir farahi, shuurning tuyg'u vatasavvur oldida chekinishi sifatida qabul qiladi, shoir yolg'oniga «ishonadi».

Abdulla Sherning «Gul yillar, bulbul yillar» kitobida yomg'ir obraziga shu paytgacha kuzatilganidan o`zgacha mano yuklatiladi:

YOmg'irlar oralab o`ta umrim,
Har tomchi – bir umr, o`zi bir dunyo.
YOmg'irlar oralab kuzataman jim,
Yuvinib boradi asta kir dunyo –
YOmg'irlar oralab...

Shoir yomg'irning har tomchisini bir umrga, o`ziga xos alohida bir dunyoga tashbehlaydi. Natijada bizningcha, hech bir boshqa shoir ijodida kuzatilmagan original umumlashmaga – kir dunyoning yomg'irda yuvinib, tozarib borayotgani haqidagi poetik xulosaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri she`riyati davr bergan, milliy istiqlo bergan ijod erkinligidan foydalanib, yaz mavzu qamrovini tobora kengaytirib borayotgan, turli shakllar vositasida kitobxonlar ruhiyati va shuuriga yo`l ochayotgan she`riyatdir. Ijtimoiy ongning barcha sohalari singari she`riyat ham taraqqiyot jarayonida davom etmoqda. Uning bugungi samaralarini chu`kurroq kuzatish, taraqqiyot tamoyillarini, tarqqiyotni taminlayotgan asoslarni o`rganish va targ'ib qilish bugungi adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

Mustaqillik davri she`riyati o`zining yangi ko`rinishlari, shakl va mazmun borasida izlanishlari bilan ham kishi ko`nglini quvontiradi. Ma`lumki, har qanday yangilik, taraqqiyotning ildizlari davr bilan, zamoni, davrni to`g`ri idrok qilish bilan bog`liq ravishda paydo bo`ladi. Inson tafakkuri takomillashgan sari xayotga munosabati qarashi ham yangilana

boradi. Adabiyotimizda keyingi yillarda modernizm atamasi bilan atalayotgan ijodiy yo`nalish ham shunday yangilik xarakteriga ega hodisadir.

XIX asr o`rtalariga kelib ayrim ilg'or fikrli Evropa ijodkorlari voqelikni bevosita tasvirlash va unga taqlid qilishdan bevosita chekina boshladilar. Ularning nazdida voqelik ijodkorlar imkoniyatini ko`p jihatdan cheklab qo`yadilar. Bu borada norveg olimi adibi va munaqqidi Esplen Xovardsxolm shunday yozadi: «Bugun biz shunday sanat bilan ro`parama-ro`para kelib turibmizki, bu sanat haqiqatga o`xshashlik talabini inkor etadi. Bu sanat voqelikni boshqacha tarzda qabul qilishga intiladi. Boshqacha biron yaxshiroq so`z topa olmaganlari uchun zamonaviy sanatni «modern sanat» deb atamoqdalar.»¹

Norman Meyler «Pikassoning yoshligi» asarida modernizmning tug`ilishi haqida shunday fikrlarni o`rtaga tashlaydi: «Ikki asr oralig`ida ilgari hatto tasavvur qilib bo`lmaydigan kashfiyotlar qilindi. Markoning simsiz aloqa bilan bog`lash singari kashfiyotlari odamlarni shoshirib qo`ydi. Mana shu singari g`aroyibotlarning estetik ahamiyati ham bor: madomiki, axbarotni bir manzildan ikkinchi manzilga simsiz ham uzatish mumkin ekan, insonning holati ham elektr quvvatiga bog`liq bo`la oladi, u bilan aloqaga kirisha oladi ham. Bu esa, shoirlar va ijodkorlarni befarq qoldirmadi. Chunki ular texnologik inqilobning faqat texnika bilan cheklanib qolmaydigan yalpi ommaga vaqtinchalik noMa`lum mazmun mohiyatini botinan idrok qila bilgan edilar. Biron bir masofini faqat ot yordamida emas, boshqa vositalar ko`magida, boz ustiga aql bovar qilmas tezlikda bosib o`tish mumkin ekan, ijod maydoniga ham boshqacha andozalar bilan yondashmoq kerak degan tushuncha-aqidalar paydo bo`ldi. Ana shu yillari Freyd o`ziga xos tushlar tabirini keng jamoachilikka havola qilgandi. Bu esa ko`plab ijodkorlarni hayotga yangicha nigoh bilan qarashga unday boshladi. Insonning botiniy

¹ Jahon adabiyoti. 2001 yil, 1-son, 197-bet.

olamiga ilk yo`lak ochilgandi. Azaliy tushunchalar, an`analar chil-parchin bo`lib ketgandi.»²

Shunisi quvonchliki, jahon adabiyotining ilg'or qarashlari, shakl va aqidalari bilan qurollanib, uning taraqqiyotini taminlashga harakat qilayotgan o`zbek shoirlari tomonidan ham modern she`riyatning sara namunalari yaratilmoqda. Rauf Parfi, Faxriyor, Bahrom Ro`zimuhammad kabi ko`plab shoirlarimiz yaratgan modern she`riyat namunalari allaqachon she`rxonlarimizning ko`ngil mulkiga aylanib ulgirkanligi fikrimizning dalilidir. Ma`lumki, moddiy birligning aniq tasviri tasirchanlikni oshirish bilan birga lirik qaxramonning eng nozik tuyg`ulari va kechinmalarini ham ifodalashga xizmat qiladi. Rauf Parfi she`rlarida mana shu holni ko`plab kuzatamiz. Shoirning «Yo`lovchi» turkumiga kirgan she`rlaridan birini kuzatamiz.

Ko`zimning g'orida parchalangan Ko`k,
Bulutlar, to`lqinlar haddan sochilgan.
Sening chiroyingda gard yo`q, g'ur yo`q,
Aldangan gullarning bag'ri ochilgan.
Sen-da sochilgansan, ochilib gulim,
Sen balki men uchun yasharsan endi.
Sen yolg'izsan bu dunyoda, sevgilim,
Cheksiz chidamimning sinchlari sindi.
Cho`nqaygan cho`qqidan so`rayman seni,
Qarigan bahordan seni so`rayman.
Topgin, deyman mening Buyuk Sevgimni,
Er tishlab so`rayman, so`ng bor ko`ray man,
Chaqinlar jimlikka chaqar jisingni,
Ko`kning sinig'iga seni o`rayman.

² Andre Breton. Syurrealizm manifesti // «Jahon adabiyoti», 2000, 5-son, 179-bet.

Ko`rinib turibdiki, sonetdagi har bir so`z jozibasi kishini maftun etadi. Lekin ular zamirida yashiringan fikrni, yani shoir niyatini kishi tezda ilg'ab ololmaydi. Uni anglash uchun holatni ko`z oldimizga keltirishimiz lozim. Ma`lumki, ko`z soqqasi – g'orida g'avhar joylashgan. Unda tiniq osmon – butun borliq jilolanadi. Tiniq narsada gard, g'ubor bo`lmaydi. Dunyo, olam har kishi ko`ziga shunday ko`rinadi. Lekin odam yashagan sari uning haqiqiy qiyofasini seza boradi. Shoir sof degan narsa ro`yo bo`lib chiqadi. Hayotning turfa nayranglaridan cho`qqilar ham charchab cho`nqaygan, bahor ham qarigan. Lekin shoir soflikka, komillikka intiladi. Komillikning birinchi asosi chin sevgiga muyassar bo`lishdir. Shoirning «Yo`lovchi» she`rida shunday misralarni o`qiyimiz:

So`zning gulxanida ruhim isindi,
Ul yulduz, oylarning so`zin o`qirdim...
Alamzor qo`ynida ezilgan bir barg.
So`nggi Unut so`zin daryosi oqar.

Sirtidan qaraganda so`zning ham gulxani bo`ladimi, degan savol tug'ilishi mumkin. Lekin ong oqimini ishga solib, mushohada yuritilsa, mohiyat oydinlashadi. Xalq orasidagi «Bug'doy noning bo`lmasa ham, bug'doy so`zing bo`lsin» degan naql bejiz aytilmagan. Insonning isyoni, itoati, muteligi, shijoati ham so`z tufaylidir. Ikkinchi misrada «yulduz» va «oy» so`zlari sayyora yoki osmon jismlarini anglatmaydi. Ular Ma`naviyat osmonidagi yulduz va oylardir. Shoir o`shalarning so`zini o`qiydi, idrok etadi. «ezilgan bir barg» - bu shoirning yuragi.

Modern she`riyatning sara namushalarini yaratayotgan shoirlardan biri Fahriyordir. Uning she`rlari kutilmagan tashbehlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Umidlarim kulini sochdim,
Men boshimga oqarar sochim.
Qolaverdim, qayonlar ketding,
Sen mendagi o`zingdan qochib? –

deya yozadi Fahriyor. Umidlar ushalavermagach, hijronda qalb otashga aylanadi. Umid eng oxirida o`ladi deganlaridek, yana umidlar... Ular otashda kuyib, kulga aylanadi. Umidlar qalangani sari umidko`proq alangalanadi...

O`ziga xos shoir Aziz Saidning «Suvdagi izlar» degan she`riy turkumidagi asarlarni kompozitsion jihatdan milliy she`riyatimizda yangilik deyish mumkin. Negaki, qofiyasiz, faqat teskari mano va ichki mantiqiy ohangga tayanilgan uch yoki to`rt qatorlik she`rning ilk ikki yoki uch satrida muaayyan bir holat ifodalanadi, oradan bir satr tashlab bitilgan uchinchi yoki to`rtinchi daxlsiz misrada o`sha holatni keltirib chiqargan hayotiy asos aks etadi.

So`zga aylana olmay qiynalar
Rangli sharlar ichidagi
Nafasim
YOhud
Tuyoq tozalayotgan shaharlik ayol
Qo`llariga yopishib qolar
Olis yaylovdagi maysalar sasi.

Borliqdan ko`ra ko`ra yo`qliqqa yaqinroq yurak titroqlari va ko`ngil tovlanishlari qolipga sig`maydi. O`zini tinimsiz tekshirib, ruhiyatdagi evrilishlar mohiyatini anglashga urinayotgan davr kishisi, ayniqsa, ijodkor o`zi va zamondoshlarining suvdagi mavj, qumdagi yozuv singari noturg'un va

o`zgaruvchan ko`ngil holatlarini kutilmagan yo`sinda ifodalashga urinadilar. Shoiri Go`zal Begim to`rt maktubdan iborat bitta she`rni «Qummaktublar» deb atagan. Garchi o`zgachalikning o`zi hm bazida sanat darajasiga ko`tarilsa-da, bu shunchaki o`zgacharoq ko`rinish istagi emas. Qumdagi imorat omonotligi, undagi tasvir lahzalik bo`lgani kabi qummaktublarda ham odamning soniya sayin o`zgarib turadigan, o`zga tugul o`zi ham anglab etishi mushkul tuyg`ulari aks etadi. Shoiri na bosh harf va na tinish belgilari bor she`rida o`z tuyg`ularini shunday ifodalaydi:

yugirib yugurar bo`g`zimda hovur
sanchilib og`riydi barmog`imda baxt
ipak gulkosada yovqur tabassum
og`ir hislarimga to`kilar
bosh chayqaydi tasvirim
sog`inch

Bu she`rni shunchaki o`qigan she`rxon chigal ruhiy holat ifodasini tuya olmaydi. Muallifga tuyg`udosh bo`lib, estetik istemolchidan ijodkor maqomiga yuksala boshlagan kitobxongina bu mavhum tasvirlar zamiridagi konkret holat ifodasini ilg`ash mumkin.

Modern she`riyatning yana bir xususiyati shundaki, unda so`z an`anaviy she`rlardan o`zgacha quriladi., shoir pozitsiyasi aniq ko`zga tashlanib turmaydi. Aksariyat holda tinish belgilari ham qo`yilmaydi. Chunki fikr ong oqimi kabi miyada tinimsiz oqadi, kishiga tinchlik bermaydi. Bahrom Ro`zimuhammadning she`rlari shunday. U «Jarayon» nomli she`rida shunday yozadi:

Ruhimda yashaydi bir vahshiy odam
kuzatib yotadi fel-atvorimni

qancha sipo ko`rinsam shuncha darg'azab.

Agar kishi ong oqimini fikrlashga yo`naltirsa, «vahshiy odam» kimligini anglab etadi. U iblis-shayton. Ma`lumki, shayton ezgulikdan bezovta bo`lsa, yomon amollardan gul-gul yonadi.

betoqat bo`ladi gohida
gul hidlasam yoki she`r yozsam
bexosdan irillagan kuchuk singari
ixcham sakrab ketar quvonganidan
shunday o`kirarki bu qichqiriq
fosh etadi meni va uni.

Inson insonlida qolish uchun ruhidagi shaytonga nisbatan isyon ko`tarishi kerak. Shundagina bu «vahshiy kishi» junbushdan to`xtaydi.

Miyani chatnagudek fikrlashga majbur etish modern ruhidagi she`rlarga xos xususiyat. Bunday namunalarga misolni ham Bahrom Ro`zimuhammad she`rlari orasidan topishimiz mumkin.

Daraxt kovagining mehmoni qo`rquv
ilonning ishq tushdi ninachiga
tanovul qilaman g'ussa bo`tqasin

Ma`lumki, daraxt kovagi hamisha ilon, boyo`g'lilarning makoni. Shundan kovakka yaqinlashish qo`rqinchlidir. Ilon ninachini sevib qolgani yo`q, uni eyishga ishtiyoqli. Daraxt bu o`rinda dunyo ma`nosida. Dunyoda esa, ojiz ustidan kuchli hukmron. Shoir buning bilan murosa qila olmaydi, shundan uning g'ussasi ko`p.

Ko`rib turganimizdek, modern she`riyat hayotni, olam va odamni yomon illatlardan yiroq ko`rishni istaydi. Bunday xususiyatni Abduvali Qutbiddin, Davron Rajab, Boltaboy Bekmatov, ikrom Iskandar, Go`zal Begim she`rlaridan topish mumkin. Lekin zamonaviy she`riyatda beo`xshov tashbehlar, umuman izohlash mumkin bo`lmagan tasvirlar ham uchraydiki, ular ham modern she`riyat nomi bilan gazeta jurnallarimiz sahifalaridan o`rin olmoqda.

«Aytaylik, atoqli shoirimiz R.Parfi bir she`rida: «Chaynagim keladi ko`zlarimni og`zimga solib» degan edi. Bahrom Ro`zimuhammad:

O`z qonimni ichkim keladi juda
maydalagim kelar suyaklarimni, -

deydi. Sh.Hasan o`zini o`zi «eb qo`yadi»:

O`z yog`imda o`zni qovurib,
So`ng o`zimni etdim tanovul.

H.Ahmedova «Yurak yuki» degan she`rida barcha qovurg`a va umurtqalarini sindirib, ularni «oshiq-moshig`i bilan oppoq bo`yniga osib» olganligi va bundan sevinib, qiyqira boshlagani haqida yozadi.

Bunday tashbehlardan badaningizga ilon o`rmalagandek bo`ladi».¹

Bizningcha, kishilarni modern she`riyatidan bezdiradigan ushbu xil holatlardan qanchalik tez qutilinsa, shuncha yaxshi bo`ladi. Negaki she`riyat barcha zamonlarda ham kishilarni estetik jihatdan ham tarbiyalab kelgan bebaho qadriyatlarimizdan biridir.

¹ Ochilov E. «Siz she`r aytasizmu yo odam qo`rqitasiz?»// «O`zbekiston adabiyoti va san`ati» gazetasi. 2004 yil, 17 sentyabr soni.

UMUMIY XULOSALAR

Mana, biz mustaqillik davri she`riyati taraqqiyotining asosiy tamoyillarini imkoniyat darajasida o`rganishga harakat qildik. Izlanishlarimiz shuni ko`rsatdiki, o`zbek she`riyat mustaqillik davrida muayyan taraqqiyot bosqichini boshidan kechirdi, bu jarayon bugungi kunda ham davom etayotganligi quvonchli holdir. Davr she`riyatining taraqqiyoti quyidagilarda ko`rinadi:

1.Mamlakatda ro`y bergan milliy istiqlol natijasi o`larpoq maydonga kelgan ijod erkinligi tufayli she`riyatning mavzu qamrovi kengaydi. Bu o`shish Vatan mavzuidagi she`rlarning yuzaga kelishida, ilgari tilga olinmagan yoki qoralanib, badnom qilingan ajdodlarimiz shaxslariga va meroslariga munosabat sifatida yaratilgan asarlarning paydo bo`lishida ko`rinadi.

2.Davr she`riyatida ming yillar davomida axloqiy qarashlarimiz, turmush tarzimiz uchun ustivor mafkura sanalgan islomiy asotirlar va hikoyatlar asosida asarlar yaratildi. Ushbu harakat shoirlarimizning asrlar davomida kuzatilmagan «Arbain», yani qirq hadis asosida she`r yaratish an`anasini davom ettirganliklarida ko`zga tashlanadi.

3.Mustaqillik davri she`riyatida yangi tamoyillar bilan bir qatorda mumtoz adabiyot an`analari asosida she`rlar ham ko`plab yaratildi. Mumtoz she`riyat janrlaridan g`azal, ruboiy va masnaviy shaklida asarlar ko`plab yaratildi. Ularning eng sara namunalari barcha davrlarda bo`lgani singari musiqaga solinib, xalq xukmiga havola qilinayotganligi quvonchli holdir.

4.O`tgan asrning 80-yillarida sarbast, verlibr atamalari bilan nomlanib, yoshlar ijodida muayyan yo`nalish ko`rinishini olgan erkin vaznli she`r bugungi kunda modern atamasi bilan o`zining taraqqiyot bosqichini davom ettirmoqda. Bu she`riyat jahon she`riyatining eng yaxshi an`analarini davom ettirib, o`zbek she`rxonlarining ko`ngil mulkiga aylanib bormoqda. Biroq alohida ta`kidlash kerakki, ushbu yo`nalishdagi she`riyatda kishiga estetik

zavq berish o`rniga tuyg`ularni to`mtiqalashtiradigan, poetik navofatdan xoli asarlar ham mavjudligi bu borada mualliflarning hali-veri izlanishlari lozimligini ko`rsatadi.

Bizning ushbu malakaviy-bitiruv ishimizdan o`zimizning pedagogik faoliyatimizda, xususan, zamonaviy adabiyot masalalarini o`rganishga qaratilgan adabiyot darslarida, shuningdek, adabiyot fani bo`yicha sinfdan tashqari ishlar tarkibida yordamchi materiallar sifatida foydalanishimiz mumkin. Shu maqsadda ishimiz mavzusini maktab materiallari bilan bog`lab, metodik birlashmalar va o`qituvchilarning avgust anjumanlarida chiqishlar qilish niyatimiz bor.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. Yangicha ishlash va fikrlash davr talabi. 5-jild. Toshkent, O`zbekiston, 1996.
2. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. Toshkent, O`zbekiston, 2001.
3. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. Toshkent, Sharq matbaa kontserni, 2006.
4. Qurr`onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, O`qituvchi, 2006.
5. Hudoyberganov E. Adabiyotshunoslikka kirish, T., 2004.
6. Komilov N. Tasavvuf. 2-kitob. Toshkent, «YOzuvchi», 1999.
7. Vohidov E. Sheru shoiru shuur. Toshkent, Adabiyot va sanat nashriyoti, 1987.
8. Oripov A. Ehtiyoj farzandi. Toshkent, Adabiyot va sanat nashriyoti, 1988.
9. Normatov U., Hamdamov U. Dunyoni yangicha ko`rish ehtiyoji.// Jahon adabiyoti, 2002 yil, 12-son.
10. Ochilov E. Siz she`r aytasizmu yo odam qo`rqitasiz? // O`zbekiston adabiyoti va sanati. 2004 yil, 17 sentyabr soni.
11. Qodirov P. Ma`naviyat, modernizm va absurd.// O`zbekiston adabiyoti va sanati, 2004, 26 mart.
12. <http://www.literature.uz/>;
13. <http://www.ziyouz.com/>.

MUNDARIJA

Kirish _____

1-bob. Zamonaviy she`riyatning mavzu ko`lami _____

2-bob. Hozirgi o`zbek she`riyatining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari _____

Umumiy xulosalar _____

Foydalanilgan adabiyotlar _____

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi bo`limi bitiruvchisi Jumaboeva Shahnozaningning «Zamonaviy she`riyat taraqqiyoti tamoyillari» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishi haqida ilmiy rahbar

X U L O S A S I

Mamlakatimiz istiqloli milliy sanat va adabiyot taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlari yo`lini ochib berdi. Ilgarigi davrda kommunistik mafkura qolipi va cheklovlari sababli partiyaviylashib, sinfiylashib qolgan adabiyot o`zining haqiqiy missiyasini bajarish – vatandoshlarimizning badiiy-estetik didini shakllantirish va tarbiyalash o`zaniga tushdi. Buni mustaqillik davri adabiyotida ro`y berayotgan zohiriy va botiniy o`zgarishlar isbotlaydi.

Bitiruvchi Jumaboeva Shahnozaning bitiruv-malakaviy ishi istiqlol yillari o`zbek she`riyati taraqqiyotining asosiy tamoyillarini o`rganishga qaratilgan.

Malakaviy ish ikkita asosiy boblardan tashkil topgan bo`lib, ularning birinchisida davr she`riyatida ustuvorlik qilayotgan mavzu va masalalar ko`lami ochib berilgan. Muallif to`g`ri ta`kidlaganidek, qariyb bir asr davom etgan mustamlakachilikdan keyingi istiqlol o`z xalqining «ko`zi va qulog`i, vijdoni» bo`lgan adabiyotda, she`riyatda aks etmasligi hech qanday mantiqqa to`g`ri kelmaydi. Istiqlolni kuylash bu qandaydir mafkuraning nog`orasiga o`ynash emas. Agar bu mafkura sanalsa, u xalq mafkurasi, milliy mafkuradir. Birinchi bobda mustakillik davri she`riyati manna shu nuqtai nazardan tahlil qilinadi.

Ishning ikkinchi bobida davr she`riyati mavzu doirasi, g`oyaviy-badiiy xususiyatlari haqida mulohaza yuritiladi. Sho`rolar davridayoq xalqchil va istiqloлга da`vat etuvchi she`rlari bilan tanilgan XX asr she`riyatining zabardast shoirlari R.Parfi, H.Xudoyberdieva, H.Davron, Muhavmmad Yusuf

va Q.Rahimboeva kabi qalamkashlarning turli mavzudagi asarlariga xos bo`lgan badiiyat, ular asarlaridagi an`anaviylik va novatorlik imkoniyat darajasida tahlil qilinadi.

Sh.Jumaboevaning yutug`i shundaki, u har irkala bobda ham o`z oldiga qo`ygan maqsadga erishgan. Davr shoirlari asarlarini mavzu talablari asosida o`rganib, muayyan xulosalar chiqargan.

Qisqasi, Sh.Jumaboevaning mazkur ishini tugallangan tadqiqot sifatida DAK oldida himoya qilishga tavsiya etaman.

F.SALAEV, O`zbek filologiyasi
kafedrasi dotsenti

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Filologiya fakulteti o`zbek filologiyasi bo`limi bitiruvchisi Jumaboeva Shahnozaningning «Zamonaviy she`riyat taraqqiyoti tamoyillari» mavzusidagi bitiruv-malakaviy ishiga qisqacha

T A Q R I Z

Men bitiruvchi Sahnoza Jumaboevaning mazkur bitiruv-malakaviy ishini katta qiziqish bilan o`qib chiqdim. To`g`risi, mavzuni ko`rib, bitiruvchi talaba nari borsa hozirgi zamon she`riyatiga umumiy sharh bergandir, degan fikr o`tdi xayolimdan. Biroq ish bilan yaqinroq tanishgach, fikrim o`zgardi – bitiruvchi adabiyot va mafkura, adabiyot va Ma`naviyat, badiiyat va estetik

zavq, bularning inson ruhiy dunyosiga tasiri kabi masalalarni chuqur his qiladigan hamda o`z kuzatishlarini ilmiy tarzda qog`ozga tushira oladigan mutaxassis darajasiga etib qolibdi.

Ishda davr she`riyati mavzu ko`lami, g`oyaviy-badiiy xususiyatlari jihatdan tahlilga tortilgan. Unga xos bo`lgan asosiy tamoyillar belgilanib, oziqlanayotgan ildizlari to`laligicha tadqiq qilingan. Zamon she`riyatini xarakterlovchi har bitta belgining ijtimoiy asoslari ochib berilgan.

Menda ikkinchi bobning zamonaviy she`riyatdagi islomiy-tasavvufiy asarlar tadqiqi hamda o`zbek she`riyatida ro`y berayotgan yangi shakliy izlanishlarga ajratilgan fasllar ayniqsa yaxshi taassurot qoldirdi.

Umuman olganda, Jumaboeva Shahnoza zamonaviy she`riyatda keyingi o`n-o`n besh mobaynida ro`y bergan va berayotgan ichki va tashqi to`lqinlarni ilg`ay olgan va o`z malakaviy ishida imkon qadar ilmiy inikos ettirgan.

Malakaviy ishda muayyan kamchiliklar ham ko`zga tashlanadi. Ikkinchi bobdagi zamonaviy she`riyatda katta voqea sifatida namoyon bo`layotgan modernizm haqida Ma`lumot berilgan holda, ushbu yo`nalishda ijod qilayotgan shoirlar uslubining individual xususiyatlari ochib berilmagan.

Bundan tashqari ish matnida ayrim uslubiy xatolar, fikr takrorlari ham uchraydi. Bular ish uchun xarakterli xususiyat emas, albatta. Shuning uchun uni yaxshi ishlar qatorida baholash mumkin, deb o`ylayman.

K.Allambergenov, f.f.d., professor, NDPI
Qoraqalpoq adabiyotshunosligi kafedراس
mudiri.